

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI
XALQ IJODIYOTI FAKULTETI**

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Fakultet dekani

_____S.Ikramov

2019-yil “ _____ ” _____

**5151700 – Madaniyat va san‘at muassasalarini tashkil etish va boshqarish
yo‘nalishi 4-kurs talabasi Aliyeva Gulshoda Shukur qizining “Madaniyat va
istirohat bog‘larida aholining mazmunli dam olishlarini to‘g‘ri tashkil etish
masalalari” mavzusida yozgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar

_____X.Shodiyev

“Madaniyat va san‘at muassasalarini tashkil etish
va boshqarish” kafedrası katta o‘qituvchisi

Taqrizchi

_____S.To‘ychieva

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti falsafa fanlari doktori, professor
v.b.

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Madaniyat va san‘at muassasalarini

tashkil etish va boshqarish kafedrası mudiri

_____B.Salaydinov

2019-yil “ _____ ” _____

TOSHKENT 2019

MUNDARIJA

KIRISH.....3

I.BOB. O’rta osiyoda hamda Yevropa bog’-parklarining shakillanishi, uyg’unlashuvi va infra tuzilmasi.....

1.1 Markaziy osiyoda bog’lar barpo etilishi tarixi Amir Temur va Temuriylar asos solgan bog’lar.....6

1.2. O’zbekiston va Yevropa bog’-parklari uyg’unlashuv jarayonlari.....14

II.BOB Mamlakatimizda madaniyat va istirohat bog’lari bo’yicha olib borilayotgan islohotlar va aholining mazmunli dam olishlarini to’g’ri tashkil etish masalalari

2.1. Mustaqillik yillarida yurtimizda madaniyat va istirohat bog’lariga qaratilgan e’tibor va tub islohatlar.....42

2.2. Madaniyat va istirohat bog’larida ommaviy-madaniy tadbirlarni tashkil etish uslublari.....52

Хулоса.....67

Фойдаланилган адабиётлар.....70

Иловалар

Kirish

Bittiruv malakaviy ishining dolzarbligi. Mustaqillik sharoitida ma'naviy islohotlar zamirida madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyati tubdan o'zgardi, yangi mazmun kashf etdi, shaklan kamol topdi. Bu o'zgarishlar istiqlol bergan imkoniyatlar asosida sodir bo'ldi. Zero, bu sohani yangilanishi tarixiy zarurat edi. Sho'rolar davrida madaniy-ma'rifiy muassasalar xalq manfaatlariga xizmat qilish o'rniga, zo'raki ravishda kommunistik g'oyalarni targ'ib qilish maskanlariga aylantirilgan edi. Mustaqillik sharoitida esa madaniy-ma'rifiy muassasalar xalqning ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, milliy an'analarini tiklash, xalq ijodini ravnaq toptirish, yangi milliy mafkurani targ'ib etish maskaniga aylandi. Mustaqillik tufayli respublikamizda milliy-ma'naviy tiklanish davlat siyosat darajasiga ko'tarilgandan so'ng, madaniy-ma'rifiy muassasalar xalq ma'naviyati kamoloti yo'lida xizmat qilish imkoniyatlariga ega bo'ldi.

Shu nuqtai nazardan olib qaraganda ma'lumki, madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatida milliy ma'naviyat masalalari bilan shug'ullanish asosiy soha bo'lgani sababli, madaniyat muassasalari komil insonni tarbiyalash jarayoniga o'zining munosib hissasini qo'shishga mas'ul hisoblanadi, chunki kelajakda buyuk davlat egasi bo'ladigan komil insonni tarbiyalamasdan, uni axloqiy jihatdan barkamol qilmasdan turib rivojlanish muammolarini hal etish mumkin emas. Hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish borasidagi murakkab vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish fuqarolarning ma'naviy-axloqiy kamolotiga, imon-e'tiqodiga, g'oyaviy-siyosiy yetuklik darajasiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Inson kamoloti millat va mamlakat rivojiga asos bo'ladi. Xalq orasida, turar joylarda madaniy-ma'rifiy faoliyat olib boruvchi muassasalarning bu ishlarni amalga oshirishda o'ziga xos imkoniyatlari mavjud edi.

Shu narsani e'tiborda tutish kerakki, madaniy-ma'rifiy muassasalar asosan joylarda va muayyan aholi qatlamlariga xizmat ko'rsatadi. Shu boisdan ham madaniyat muassasalari muayyan regionning asosiy madaniyat markazi, ma'rifat va mazmunli dam olish maskani sifatida xalq ijodini kamol toptirishda, bayram va

sayillarni uyushtirishda keng imkoniyatlarga ega ma'naviy-mafkuraviy tashkilotlar sifatida xizmat qilmoqdalar. Madaniyat muassasalari kishilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish, shaxs ma'naviyatini har tomonlama rivojlantirish va ularning ijtimoiymadaniy faolligini oshirish jarayonlarini uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimi shaklida amalga oshiradi. Shuningdek, ular joylarda mafkuraviy targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishda ham davlat, partiyalar, yoshlar uyushmalari, kasaba tashkilotlari va ko'ngilli jamiyatlarning tayanch-tarbiyaviy markazi sifatida ham faoliyat olib boradilar.

Shu nuqtai nazardan olib qaraganda madaniy-ma'rifiy muassasalarning biri hisoblangan madaniyat va istirohat bog'lari faoliyatini o'rganish va tahlil qilish muxim va dolzarb masalalardan xisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining obekti va predmeti. Bitiruv malakaviy ishning asosiy obekti madaniyat va istirohat bog'lari faoliyati bo'lib, uning asosiy predmeti esa madaniyat va istirohat bog'larida aholining mazmunli dam olishlarini tashkil etish masalasi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishning maqsadi madaniyat va istirohat bog'larining faoliyatini tahlil qilish. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi:

- daniyat va istirohat bog'ining faoliyatini o'rganish va uni yoritish;
- Xalqimizning ijtimoiy-madaniy tarixi davomida va umum jahon bog' barpo etish tajribasini o'rganish;
- adaniyat va istirohat bog'larida aholining mazmunli dam olishlarini tashkil etish masalalari haqida;

Malakaviy bitiruv ishining nazariy va uslubiy asoslari. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimovning mamlakatimizda madaniyat sohasini rivojlantirish hamda Vazirlar Mahkamasining ushbu sohani yuksaltirish bo'yicha ishlab chiqqan qonun, ko'rsatma va qarorlariga hamda O'zbekiston

respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev boshchiligida qilinayotgan keng islohotchilik ishlariga tayanadi.

Bittiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi. “Madaniyat va istirhot bog’larida aholining mazmunli dam olishlarini to’g’ri tashkil etish masalalari” mavzusidagi ushbu bittiruv malakaviy ishida madaniyat va itirohat bog’larida aholining barcha qatlamlariga hizmat ko’rsatish, bo’sh vaxtini unumli o’tkazish, yoshlar tarbiyasida madaniyatning o’rnini oshirish, ommaviy madaniy-tadbirlar orqali insonlar qalbiga milliy urf-odat va an’alarimizni chuqurroq singdirishga qaratilgan barcha jarayonlar uyg’unligiga erishish “bog’ yaratish” masalalariga jiddiy e’tibor berish nuqtai nazari bilan yondoshishi bittiruv malakaviy ishining ilmiy ahamiyatini belgilaydi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi hajmi. Malakaviy bitiruv ishi kirish, ikki bob, to’rt paragraf, xulosa, hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo’lib sahifani tashkil etadi.

I.BOB. O'rta osiyo hamda Yevropa bog'-parklarining shakillanishi, uyg'unlashuvi va infra tuzilmasi..

1.1 Markaziy osiyoda bog'lar barpo etilishi tarixi Amir Temur va Temuriylar asos solgan bog'lar.

O'rta Osiyoda qadimgi odamlar yashagan paytda tabiiy sharoit hozirgidan farqlanar edi. O'rta Osiyoda muz davri paytida tog' muzliklari doimiy o'zgarib turdi, ular ob-havoni o'zgarishiga ta'sir qildi. Pomir va Tyanshan muzliklari Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon daryolarini paydo bo'lishiga xizmat qildi, ular bu joylarda hayot vujudga kelishiga maqbul sharoit yaratdi. O'rta Osiyoning geografik joylashuvi, yaxshi ob-havosi va hayvonot olami kabilar tabiat va insonning mustahkam o'zaro aloqasi uchun alohida sharoit yaratdi, tabiat qadriyatlariga hurmat paydo bo'ldi, shuning uchun ham bu yerda qadimiy ildizga va boy an'analarga ega bo'lgan bog'-park madaniyati paydo bo'ldi va rivojlandi. Bog'lar odamlar yerga ishlov bera boshlaganda paydo bo'ldi (mil. avv. III ming yillik oxiri – I ming yillik boshlari).¹

Mil. avv. I ming yillikda otashparastlik tarqalgandan keyin olov ibodatxonalari atrofida qurilgan saroy bog'lari paydo bo'ldi.² Qat'iy geometrik shaklga ega bo'lgan II-V asrlardagi Eron bog'lari (paradizlar) O'rta Osiyoning bog'lar rivojiga ta'sir qildi. O'rta Osiyo bog'-park san'atini o'rganish tarixi. Ta'kidlash joizki, bog'-park san'ati tarixiga bag'ishlangan olimlarning ko'pgina tadqiqotlarida Qadimgi Sharq bog' san'atini Yevropaning bog' san'ati ta'siri ochib berilmagan. Aslida esa bunday ta'sir bo'lgan. Yirik olim M.S.Bulatov "IX-XV asrlar O'rta Osiyo arxitekturasida geometrik uyg'unlik" nomli tadqiqotida IV-X asrlarda O'rta Osiyoda arxitektura fani keng rivojlanganligi va hozirgi kunlargacha saqlanib qolgan ajoyib arxitektura asarlarini yaratilishi shu bilan bog'liqligi isbotlab berilgan. Bu davr o'ziga xos Sharq Uyg'unish davri bo'lgan edi. M.S.Bulatov

¹ Костецкий В., Исхакова М. История народов Узбекистана. - Т.: «O'qituvchi», 1994, 18 bet.

² Джаббаров И., Дресвянская Г. Духи, святые, боги Средней Азии. -Т.: «Узбекистан», 1992. - 55 bet .

shunday yozadi: “Mutanosiblikdagi ma’lum uygʻunlik va qismlar va butunning muvofiqligi, shakllarni mosligi, ogʻirlikning teng toroziligi kabilarning barchasi Al Kindiy, Al Forobiy, Ibn Sino singari qomusiy olimlar ishlab chiqqan uygʻunlik tushunchasi bilan chambarchas bogʻliq. Oʻrta asrlar arxitekturasidagi uygʻunlik – bu markaz simmetrikligi kompozitsiyasi, mutanosiblik, umumiylik va barcha elementlar muvofiqligidir”.³

Bu prinsiplar Sharq arxitektura yodgorliklarining asosiga qurilgan. Ammo garchi oʻsha davr bogʻ-park sanʼati asarlari bizgacha yetib kelmagan boʻlsa-da, bu issiq ob-havoli sharoitda bogʻlarga katta eʼtibor berilganligi va arxitektura ham ularga boʻysundirilganligi tabiiy.

Afsuski hozirgi kunda sayyohlarning XIX asrdan tasvirlari saqlanib qolgan, ularda Oʻrta Osiyo shaharlari, sugʻoriladigan yerlari, gullayotgan bogʻlari haqida gapiriladi. Masalan, XIII asr oʻrtalarida Oʻrta Osiyoda boʻlgan Marko Polo shunday yozadi: “Samarqand bogʻlar bilan oʻralgan ajoyib shahar. Uning atrofidagi tekisliklarda mevali daraxtlar ekilgan”.⁴

Qadimgi arab geograflari Ibn Hakim va Edriziylar ham (XII asr) Samarqanddagi ajoyib bogʻlar, saroylar va shahardan tashqari dala hovlilar haqida yozgan. Buxoro vohasi Markaziy Osiyodagi eʼtiborli tarixiy-madaniy xudud hisoblanadi, qadimdan sunʼiy sugʻorilgan, rejali ekilgan chiroyli bogʻlar va parklar tashkil etilgan, ularda baʼzan saroy binolari va pavilyonlari joylashtirilgan.

Buxoroning oʻrta asrlardagi bogʻlari va chorbogʻlari maxsus oʻrganilmagan, shuning uchun ilmiy adabiyotlarda ular haqida baʼzi qisqa maʼlumotlar uchraydi.

Buxoroning IX-X asrlardagi bogʻlari haqidagi dastlabki maʼlumotlar XII asrda arab tilidan fors Kubaviy tiliga tarjima qilingan Muhammad Narshaxiyning (X asr) “Buxoro tarixi” qoʻlyozma asarida uchraydi. Kubaviy Narshaxiy qoʻlyozmalariga XII asrdagi obyektlarning keyingi tarixi haqida qimmatli

³ Булатов М.С. Геометрическая гармонизация в архитектуре Средней Азии IX - XV вв.- М.; 1978, 42 бет .

⁴ Залеская А.С. Озеленение городов Средней Азии. М.,1949, 35 бет.

ma'lumotlar qo'shadi. Xususan, Narshaxiy shunday yozgan edi: "Buxoroda Juy-Mulliyonga o'xshash chiroyliroq, yaxshiroq joy yo'q, negaki bu yerda saroylar, bog'lar, gulzorlar, mevali bog'lar bor va ariqlardan daraxtzorlarga doim suv oqib turadi. Ariqlar bir-biri bilan tutashadi va minglab ariqchalar orqali daraxtzorlar va gulzorlarga oqib ketadi".⁵ Somoniylar davrida bog' tashkil qilinishi haqida Narshaxiy shunday yozadi: "Registon darvozasidan Dashtoqqacha yaxshi taqsimlangan, chiroyli bezatilgan, toshdan qurilgan binolar, kartinalar bilan bezatilgan mehmonxonalar, e'tibor bilan tashkil etilgan bog'lar, yaxshi hovuzlar, barglari chodirni eslatuvchi qayrag'ochlar bor edi. Daraxtlar yaxshi soya beradi, hovuz yonidagi dam olish joyiga qalin yaproqlardan nur o'tmaydi".⁶ Keyinchalik u bog'larni Qur'onda aks ettirilgan bog'larga o'xshatishga intilish bilan bog'liq o'rta asrlardagi an'anani tasvirlaydi. "Bog'larda nok, bodom, yong'oq, gilos, uzum, bir so'z bilan aytganda, jannatdagi ajoyib mevalar bor va ular o'z ko'rinishi bilan bog'ni bezab turibdi".

Narshaxiy qo'lyozmasi tarjimoni Kubaviy yovvoyi hayvonlari bo'lgan saroydagi bog'-qo'riqxonasi turi haqida shunday yozadi: "XI asrda Malik Shamsulmulk Ibrohim darvozasidan ko'p yer sotib oldi va u yerda ajoyib bog' yaratdi. U ko'p material va pul sarfladi va bu joyni Shamsiobod deb nomladi. Shamsobod yaqinida Malik Shamsulmulk shohona otlar uchun yaylov tashkil qildi va uni Guruk (qo'riqxonasi) deb nomladi. Bu joyni yarim farsax (taxminan 1 mil.) masofada mustahkam devor bilan o'radi. Bu joyda u saroy qurdirdi, kabutarxonasi tashkil qildi, bulardan tashqari Gurukda 5 antilopa, echki, tulki, qobon singari turli yovvoyi hayvonlarni yig'di. Barcha bu hayvonlar bu yerda yashashga o'rganib qoldi, devor esa shunchalik baland ediki, ular qochib keta olmadi.

1119 yili bog' bo'shab qolgach Arslonxonning buyrug'i bilan Shamsobod shohlar bog'i o'rnida Nomozgoh machiti qurdirdi".⁷ Ta'kidlash joizki bu machit XVI asrda

⁵ Narshaxiy. Buxoro tarixi.-T., 1992, 37 bet.

⁶ O'sha joyda.

⁷ O'sha joyda. 41 bet.

qayta qurilib, hozirgacha saqlanib qolgan. O'rta Osiyo bog'-park madaniyati rivoji Temuriylar davriga to'g'ri keldi, XV-XVI asrlarda betakror tabiiy arxitektura durdonalari yaratilgan edi. XVI asrdan boshlab o'zaro urushlar tufayli O'rta Osiyo bog'larining eng yaxshi namunalari yo'q qilindi. XX asrda urbanlashuv va yangi ob'yektlar qurilishi natijasida qolgan ko'pgina eski bog'lar yo'q qilindi. Shunday qilib bog'-park madaniyatini yaratish boy tajribasi yo'q qilindi.⁸

Eski Samarqand shahrining batafsil tasviri XV asrda O'rta Osiyoga kelgan ispan elchisi Klavixo Rui Gonzalesning esdaliklarida uchraydi: "Samarqand shahri tekislikda joylashgan, tepaliklar va chuqurliklar bilan o'ralgan, u (devorichi) Sevilya shahridan biroz katta, shahar tashqarisida esa ko'plab uylar turli tomondan unga kelib tutashadi. Butun shahar bog'lar va uzumzorlar bilan o'ralgan, ular uzoq-uzoqlarga cho'zilib ketgan. Shahar tashqarisida joylashgan bu bog'larda ko'plab katta va e'tiborli uylar qurilgan, shohning ham saroylari va bosh omborxonalari bor. Bulardan tashqari bog'larda ko'plab kiborlarning uylari va xonalari bor. Bog'lar va uzumzorlar shunchalik ko'pki, xuddi baland daraxtlardan iborat o'rmonga o'xshaydi. Shahar va bog'lardan ko'plab ariqlar oqib o'tadi. Bu bog'lar orasida ko'plab qovun va paxta ekiladi".⁹

G.A.Pugachenkova 1951 yili Temuriylar davridagi bog'-park san'ati haqida asar nashr etdi. Xususan, u shunday yozadi: "Temurning Samarqanddagi saroyi va ko'pgina shahardan tashqari qarorgohlarida ajoyib bog'lar tashkil qilingan. Ularning rejasida kompozitsiyaning asosiy o'qini tashkil etish usullari qo'llangan. Ajoyib suv havzalari ko'plab qurilgan".¹⁰

U.A.Alimov Samarqandning qadimiy bog'lari yuzasidan qiziqarli tadqiqot o'tkazdi.¹¹ Uning ma'lumotlariga ko'ra, olim Ibn Arabshoh, "Zafarnoma" muallifi Sharafiddin Ali Yazdiy, Bobur "Boburnoma"da, Alisher Navoiy,

⁸ Карабаев У.Х. Этнокультура.- Т.: Шарк, 2005, 210 bet.

⁹ Де Клавихо Рюи Гонзалес. «Дневник путешествия ко двору Тимура в Самарканде в 1403-1406». СПб., 1881, 32 bet.

¹⁰ Пугаченкова Г.А. Садово-парковое искусство в Средней Азии в эпоху Тимура и Тимуридов.-Т.; 1951, 69 bet.

¹¹ Алимов У.А. Древние сады Самарканда.- Т., 1963, 23 bet.

Abdurazzoq Samarqandiy o‘z asarlarida Samarqanddagi XIV-XV asrlarda mavjud bo‘lgan bog‘lar haqida ma‘lumotlar keltiradi. Tadqiqot muallifi bu bog‘lar joylashgan o‘rni, ularning nomini, ba’zilarining muallifini (Shahobiddin Ahmad Zardakashiy) va ular rejasi prinsiplarini aniqlash imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bog‘larning ikki turi ma‘lum, ya’ni chorbog‘lar, ular loyiha asosida yaratildi, devor bilan o‘rab olingan edi, ularda chetlariga terak, chinor singari chiroyli daraxtlar o‘tqazilgan yo‘laklar, shuningdek mevali daraxtlar bo‘lgan edi; shu bilan birga dam olish va ov qilish qulay bo‘lgan tabiiy yashil maydonli bog‘-parklar bo‘lgan. Bunday bog‘larning maydoni juda katta bo‘lgan, maydoni erkin rejalashtirilgan. U paytlarda bog‘larni turlarga ajratish va ularda o‘simliklarni ekish bo‘yicha rahbariya bo‘lgan. “Boburnoma” asarida Farg‘ona vodiysi, Samarqand, Afg‘oniston shaharlari va Hindistondagi bog‘-parklar haqida qimmatli ma‘lumotlar bor.¹² Bobur nafaqat sarkarda, tarixchi, shoir, balki bog‘lar ishqibozi va yaratuvchisi ham bo‘lgan. Boshqa manbalardan ma‘lumki, Samarqandda bog‘lar ularni turlarga ajratuvchi ustalar tomonidan yaratilgan. Abu Tolib “Malfuzati Amir Temur” asarida “Bog‘ishamol” bog‘ini yaratilishi haqida yozadi. U markaziy o‘qqa nisbatan simetrik ko‘rinishda rejalashtirilgan, tasvir va gulzorlar geometrik shaklda bo‘lgan.

Bog‘larni qurishda Temur Eronning eng mashhur bog‘ Chorbog‘ an’anasini qo‘lladi. Chorbog‘ shuningdek yozning issiq kunlarida tanqis bo‘lgan suvdan tejab-tergab foydalanishga misol bo‘la oladi. Chorbog‘ tajribasi XVI asr Bobur davrida Hindistonda ham qo‘llandi.

Temuriylar davrida bog‘-park madaniyatini gullab-yashnaganligini XIV-XV asrlarda Samarqand shahrini yuzlab bog‘lar yashil xalqa bilan o‘rab turganligi bog‘-park san’atini gullab-yashnaganligidan darak beradi.

Ispan elchisi Klavixo Rui Gonzales batafsil tasvirlagan Temurning bog‘laridan biri Davlatobod deb nomlangan.

¹² Bobur Z. M. Boburnoma. - T., 44 bet.

Bog‘ do‘ngtepalar o‘rab turgan katta xududni egallagan edi, unda mevali daraxtlar juda ko‘p bo‘lgan. Mevali bog‘dan katta uzum bog‘iga chiqilardi, u ham do‘ngtepalar bilan o‘ralgan. Tepaliklar bo‘ylab baland chiroyli daraxtlar ekilgan edi. Mevali bog‘da 6 suv havzasi va ariqlar bo‘lgan. Yo‘llar bog‘dan balandda o‘tgan, ular juda ko‘p bo‘lgan, yo‘l yoqasiga baland soyador daraxtlar ekilgan va tashrif buyuruvchi bog‘ning har qanday burchagiga kira olgan.

Yog‘och qoziqlar bilan o‘ralgan baland tepalikda chiroyli xonalarga ega bo‘lgan ajoyib saroy joylashgan edi. Tepalikni suv to‘ldirilgan xandaq o‘rab turardi. Zovur ustiga ikkita ko‘prik qurilgan edi. Bu bog‘dan tashqari Samarqanddan 27 km masofada joylashgan Jahonnamo bog‘I va 7 km masofada joylashgan Dilkusho bog‘I yodga olinadi. Davlatobod bog‘I ana shu bog‘lar orasida bo‘lgan.

Armiy Vamberi O‘rta Osiyo bo‘ylab sayohati qaydlarida (1863 y.) Samarqand yaqinidagi shahardan tashqaridagi bog‘lar haqida gapiradi.¹³ “Debid (o‘nta majnuntol) nihoyatda go‘zal, qachonlardir topinish va sayr qilish joyi bo‘lgan, Samarqanddan 1 mil narida, Zarafshonning boshqa tomonida joylashgan”. “Debidga ketayotib menga mashhur bakchaynarnni (terak bogi) ko‘rsatishdi. Endi saroy vayronaga aylangan va daraxtlar umuman ko‘rinmaydi”. Armeniy Vamberi Xivaning go‘zal go‘shalari haqida hikoya qiladi. “Kichik hovlilari bo‘lgan Xiva atrofi istehkomga o‘xshaydi, baland teraklar o‘sgan, ajoyib o‘tloqlari va dalalari bor va Yevropaning chiroyli joylarida bo‘lganimdan keyin bu yerda ham chiroyli joylarda yurgandekman. Xiva gumbazlari va minoralari bu bog‘lar orasidan o‘sib chiqqandek bo‘lib, uzoqdan ham yaxshi taassurot qoldiradi”. Farg‘ona vodiysi, Zarafshon vohasi shaharlari atrofi yakkash ayvonlar joylashgan bog‘lar va dalalardan iborat. Shunday qilib ko‘p asrlik an‘ana asosida bog‘ barpo etish san‘at darajasiga ko‘tarildi, u xalq badiiy merosining bir qismi bo‘lib qoldi. Bu nafaqat bog‘, balki o‘nlab avlodlar tajribasi va bilimlari bilan yaratilgan badiiy asar bo‘lib qoldi.

¹³ Вамбери Арминий. «Путешествие по Средней Азии». 1863.- 28 бет.

Rossiya Oʻrta Osiyoni bosib olgach shaharlarning yangi qismlari (“yevropacha”) ommaviy qurilishi boshlanib ketdi, ular toʻrtburchak, baʼzan boʻylama shaklda rejalashtirildi. Yangi shahar eski shahar qismidan jiddiy farq qilardi. Osiyochar, qingʻir-qiyshiq, daraxt ekilmagan koʻchalardan farqli yevropacha shaharda keng ravon yoʻllar yotqizildi, ikki chetiga qator daraxtlar ekildi. Sershoh qayragʻochlar yoʻl ustida yaxlit tom hosil qilgandek, piramidasimon adl teraklar esa yoʻlni ikki tomonida ustunlar terib qoʻyilgandek tasavvur hosil qilgan. Keng ildizli chinor, eman, zarang, kashtan daraxtlari yoʻllarga quyruq salqin solib turardi. Taʼkidlash joizki bu shaharlardagi koʻchalar kengligi daraxtlar balandligi va uylarning kattaligiga qarab moʻljallandi. Koʻchalar chiroyli mutanosiblik va koʻrinish hosil qildi. Daraxtlar bilan birga koʻchalarga gullar ham ekildi. Katta koʻchalar yonidagi keng rabatkalardan tashqari, jamoatchilik bogʻlari va hiyobonlarida gulzorlar paydo boʻldi. Fargʻona, Qoʻqon, Toshkent bogʻlari gulzorlarga aylanib qoldi. Koʻchalar arxitekturasini daraxtlar yaratdi. Kichikroq bir qavatli uylarni daraxtlar oʻz soya-salqiniga oldi. Bu uylarning koʻcha tomondagi peshtoqlari sodda boʻlgan va oldida kichikroq bogʻcha, gullar va binoni qoplab olgan oʻsimliklardan iborat boʻlgan. Bu uylarning hovli tomonida katta mevali bogʻlar, bezakdor uchastkalar va xoʻjalik binolari joylashgan. Mohiyatan shaharning yangi qismi eskisidan farqli haqiqiy shahar-bogʻga aylandi. Jamoatchilik bogʻlari, hiyobonlari paydo boʻldi. Barcha jamoatchilik bogʻlari, parklari, hiyobonlari yevropacha rejalashtirildi, sharqona xususiyatga ega boʻlmadi. Faqat baʼzi daraxt navlari, ularning balandligi, tanasining kattaligi, keng shohlari bu ekinlarga oʻzgacha ohor bagʻishladi. Reja Oʻrta Osiyodagi sugʻorish tizimi, oʻtlarni oʻsishi va boshqa sharoitlarni hisobga olmay tuzildi. Oʻrta Osiyoning koʻpgina shaharlarida daraxtlarning koʻpligi serdaraxt bogʻlar tizimini yaratish imkonini berdi. Mavjud shaharlar katta hiyobonlar va sayilgohlar yonida mavjud boʻldi, bogʻlarda kichikroq klublar tashkil etildi. Shaharlarni qayta qurish daraxtzorlarni koʻpaytirish va markaziy va kichikroq bogʻlar tizimi yaratishni nazarda tutdi. Sugʻorish tizimi Oʻrta Osiyoda yashil zonalarni tashkil etishning asosiy xususiyati hisoblanadi. Bogʻlarni qismlarga

ajratuvchi ariqlar, ariqchalar yoki egatlar geometrik sxema asosida taqsimlandi va ular ekiladigan daraxtlar o'rnini belgilab berdi. Daraxtlarning yashil tomlari ostida to'g'ri to'rtburchak shakldagi giyohsiz pol olingan yerlar ko'zga tashlanadi. O'rta Osiyo yashil zonalarining xususiyatini belgilovchi ba'zi fikrlarni ko'rsatib o'tish zarur. Birinchidan, sug'orish maydonlarini tanlash, ularga suv tarash, har bir daraxt yonida suv oqadigan jo'yaklar bo'lishi, maydonchalarni sug'oriladigan bo'laklarga bo'lish yo'laklarni va daraxt hamda butalar guruhlarini tashkil qilish prinsiplarini belgilab beradi. Havoni salqinlatib beruvchi ariqlar, hovuzlar, favvoralarni ko'pligi O'rta Osiyo bog'larining ikkinchi xususiyati hisoblanadi. Shildirab oqayotgan, yuqoridan tushayotgan, uchayotgan tomchilardan iborat suv oqimlari issiq kunlarda bu bog'larda ko'ngilli xordiq chiqarishga imkon beradi. Yashil o'simliklar, suv, quyosh, gul va qushlarning yorqin ranglari, pavilyonlarni boy bezatilganligi Yevropa bog'lariga o'xshash bo'lmagan sharqona bog'larning alohida ko'rinishlarini yaratadi. Makonni asta ochilib borishi, umumiy rangin tuzilish, ayrim yopiq makonlar simmetriyasi, bu simmetrik qismlardagi ba'zi assimmetriyalar, qo'lda tikilgan kashta singari betakror ko'rinish hosil qiladi – bularning barchasi bog'lardagi hovlilar, choyxonalar va masjidlar rejasidagi biz kuzatgan kompozitsiya usullari hisoblanadi.

1.2. O'zbekiston va Yevropa bog'-parklari uyg'unlashuv jarayonlari.

XVIII va XIX asrlar Yevropa bog'- park san'ati. Yevropada manzara bog'larini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. XVIII asrda Yevropadagi barcha mamlakatlarda doimiy faoliyat ko'rsatuvchi bog'lar yaratildi.¹⁴ XVIII asr o'rtasi va ayniqsa oxirida doimiy ishlovchi bog'lar tabiiy muhitni o'zgartirib yuboruvchi sifatida tanqidga uchradi. Bog' kompozitsiyalarida tabiiy muhitga yaqinlashishga intilish kuchaydi. Shu asnoda bog'-park san'atida manzara bog'i nomi bilan yangi yo'nalish paydo bo'ldi. Manzara bog'larining rivojiga turli omillar ta'sir qildi, ulardan asosiylari quyidagilar:¹⁵

1. *Uzoq Sharqning ta'siri.* XVIII asr boshlarida yapon va xitoy san'ati haqida anchayin aniq ma'lumotlar kela boshladi. Manzara kompozitsiyalarini ishlanishi usullari ayniqsa kuchli taassurot qoldirdi. Faqat Chambersning Sharq manzara san'atining asosiy prinsiplari bayon qilingan "Sharq bog'dorchiligi haqida"¹⁶ kitobi paydo bo'lgandan keyin bog'dorchilikda yangi oqimga kuchli turtki berildi. Bu san'at XVIII asr bog'ini qurilishiga ta'sir qildi.

2. *Rangtasvirning ta'siri.* Rangtasvir asarlari landshaft arxitekturasida manzara usullari rivojiga kuchli ta'sir qildi. Kartinalarda rassomlar manzara qo'ynidagi vayronalar va arxitektura inshootlarining romantik go'zalligini tasvirladilar (N.Pussen, K.Lorren, O.Fragonar, Y.Rober).

3. *Adabiyot ta'siri.* Yozuvchilar doimiy bog'larga qarshi chiqdilar, tabiiy tabiat go'zalligini kuyladilar, unga inson shaxsi erkinligi ramzi sifatida qaradilar (J.Milton, A.Pop, J.Tomson, J.Adison, J.J.Russo, I.Gyote)

4. *Arxeologiyaning ta'siri.* Manzara bog'larida vayronalar, qabrlar, maqbaralar ko'p uchraydi. Qishloq hayotiga qaytish qishloqdagi kulbalar, tegirmonlar, sutxona kabilarning pastoral motivlarida aks ettirildi. Ajdodlarning qahramonligi xotirasi

¹⁴ Горохов В.А., Лунц Л.Б. Парки мира. М., Стройиздат, 1985, 50 bet.

¹⁵ Стойчев Л. Парковое и ландшафтное искусство. София, 1962, 60 bet.

¹⁶ Design for Chinese Building. London.1757.

sifatida ustunlar, yodgorliklar oʻrnatildi, antik, xitoy, turk singari usullarda pavilyonlar qurildi. Angliyada manzara bogʻlar. Dastlabki manzara bogʻlari manzara bogʻ uslubining boshlovchisi boʻlgan Angliyada paydo boʻldi.¹⁷ Yumshoq obi-havo, yogʻingarchilik va nam havo Angliyada manzara bogʻining tez rivojiga yoʻl ochdi. Arxitektor I.Brijmen 1713 yili qurilishini boshlagan Londonda 100 km masofada joylashgan *Stou bogʻi* Angliyadagi mashhur manzara bogʻlar sirasiga kiradi.¹⁸ Bogʻ notoʻgʻri trapetsiya shaklida boʻlgan. Oʻsimliklarni erkin joylashishi kompozitsiya asosini tashkil etgan. Bunda bogʻni oʻrab turgan devorlarni uzilishi tufayli bogʻ kompozitsiyasini atrofdagi landshaft bilan optik uygʻunlashtirish usuli qoʻllangan. Bogʻ ichida joylashgan saroy binosi orqasida oʻsimlik guruhleri bilan bezatilgan katta yashil oʻtloq boʻlgan. Hiyobonlar katta oʻtloq va ayrim daraxtlar orasida erkin joylashtirilgan. Bogʻ qurilishini arxitektor Vilyam Kent (1685-1748) yakunladi va *Stou bogʻi* uning eng yaxshi ijod mahsuli hisoblanadi. Kent ajoyib perspektivasi, oʻrta va orqa plani, mahorat bilan joylashtirilgan oʻsimliklari, yorugʻlik va soya oʻyini bilan nihoyatda goʻzal bogʻ maydonini yaratdi. U bogʻning ayrim qismlarini qayta ishladi, daraxtzorni chiroyli bezatdi, joyning notekisliklarini did bilan ishladi va toʻgʻri hiyobonlarni yoʻq qildi. *Stou bogʻida* Doʻstlik, Venera ibodatxonalari, toshdan qurilgan Grot, chigʻanoqdan qurilgan Grot singari turli inshootlar boʻlgan, ular saroy arxitekturasi bilan usluban uygʻunlashtirildi, bogʻdagi koʻrinishlarni kompozitsion bogʻlovchisi boʻlib qoldi Keyinchalik bogʻni qayta qurishda Kentning shogirdi Lanselot Broun (1716-1783) ishtirok etdi, u manzarali ariqlar va koʻllar yaratdi. Broun shuningdek daraxtlar doirasi boʻylab joylashtirilgan yogʻoch doʻnglarni kashf qildi. Havaskor arxitektor Genri Xoer yaratgan *Stourxeyd* ingliz manzara bogʻi keng mashhur boʻldi.¹⁹ Sunʼiy suv havzalari bogʻ-sistema kompozitsiya asosini tashkil qilgan, ularning qirgʻogʻiga chiroyli yoʻlak tarmogʻi qurilgan. Saroy yoki villa ansambl umumiy kompozitsiyasida yetakchi rol oʻynamaydi. Bogʻda Grot, Panteon, Flora

¹⁷ Стойчев Л. Парковое и ландшафтное искусство. София, 1962, 60 bet.

¹⁸ Жирнов А.Д. Искусство паркостроения. Львов, 1977, 52 bet.

¹⁹ Горохов В.А., Лунц Л.Б. Парки мира. М., Стройиздат, 1985, 52 bet.

ibodatxonasi bir qator inshootlar bor. Bu inshootlar bog‘ maydonidagi organik elementlar hisoblanadi. Bog‘ o‘simlik olamiga boy. Daraxt va daraxtlar guruhi suvda aks etib, ajoyib ko‘rinish hosil qilgan. London shahri yonida Chambers tomonidan qurilgan *Kyu* (1758) bog‘i XVIII asr Angliyasining ajoyib manzara bog‘i hisoblanadi.²⁰ Uning maydoni 60 ga. Hozirgi paytda Yevropaning mashhur botanika bog‘laridan biri hisoblanadi. Maysa qoplagan yo‘lak bog‘ning o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi. Boshqa ingliz manzara bog‘lari qatorida Londondagi 987 ga maydonga Brijmen tomonidan qurilgan *Richmond* bog‘ini, Chezvikdagi bog‘ni (Vilyam Kent) qurgan va *Shefild* bog‘ini ko‘rsatib o‘tish mumkin.²¹ Manzara bog‘ tushunchasini birinchi bo‘lib angliyalik professor Repton (1752-1817) iste‘molga kiritdi. Reptonning fikricha, landshaftning tabiiy go‘zalligini ko‘rsatish va uning kamchiliklarini yashirish lozim; uning joylashishi rejasi erkin bo‘lishi kerak, bog‘ manzarasini shunday yaratish kerakki, u tabiiydek ko‘rinsin, bog‘ning barcha elemenlarini bir butunga bo‘ysundirish lozim. Angliyadan manzarali bog‘ san‘ati butun Yevropaga tarqaldi.

Fransiya manzara bog‘lari. *Ermenonvil, Monso va Kichik Trianon*_Fransiyaning mashhur manzara bog‘lari hisoblanadi.²²

Jirardenga tegishli romantik Ermenonvil 1760 yili Marsel tomonidan qurildi. Bog‘ Genrix IV qurdirgan qadimiy qal’a atrofiga joylashtirildi. Bog‘ning suvi shovva bo‘lib tushib turadigan ko‘l joylashtirildi; qal’a pastida suvi katta ko‘lga quyiladigan ariq oqib o‘tadi. Ariqlar va ko‘l daraxtzor, o‘rmonli tepaliklar va qumli maydon bilan o‘ralgan. Russo maqbarasi bilan bezatilgan ko‘l o‘rtasida “Russo oroli” bog‘i anchayin qiziqarli element hisoblanadi. Atrofga yodgorlik kompozitsiyasini yakunlovchi va orol ko‘rinishini bezatuvchi 16 piramida teraklar ekilgan. Ermenonvild bog‘i landshaft bog‘larning romantik yo‘nalishi namunasi hisoblanadi. *Monso bog‘i* (1773-1778) Karmontel tomonidan qurilgan va Parij

²⁰ Жирнов А.Д. Искусство паркостроения. Львов, 1977, 53 bet.

²¹ Горохов В.А., Лунц Л.Б. Парки мира. М., Стройиздат, 1985, 53 bet.

²² Стойчев Л. Парковое и ландшафтное искусство. София, 1962, 60 bet.

xududida joylashgan, shahardan janubda joylashgan kichik qishloq nomi bilan atalgan. Gersog bayramlari oʻtadigan bosh pavilyon oldiga basketli doimiy parter oʻrnatilgan. Butun maydon xilma-xil boʻlgan va bogʻda oʻtloq, ellips shaklidagi koʻl, baland ustunli yunoncha vayrona, golland tegirmoni va boshqalar boʻlgan. Qalʼa oʻrmon bilan tutashib ketgan, unda Misr qabri xitoycha koʻpriklar, qoyali maydon va butun bogʻ koʻrinib turadigan minora joylashgan. Koʻk, qizil va sariq gulzorlari boʻlgan bogʻ markazida uncha katta boʻlmagan “Ranglar burchagi” eʼtiborni tortadi. Versaldagi *Kichik Trianon* bogʻi maydon Lyudovik XV botanik bogʻini yaratgan Klodt oʻgʻli bogʻbon Antian Rishar tomonidan qurildi. Erkin rejalashtirilgan hiyobon, xitoy pavilyonlari, sut fermalari, tegirmonlar va boshqalar bogʻ kompozitsiyasini toʻlatgan. Bogʻda ariq boshlanadigan qoya juda qiziqarli. Uning oqimi boʻylab antik haykallari boʻlgan “Belveder” bogʻ pavilyoni joylashgan. Ariq ustiga tosh koʻpriklar qurilgan. Orolida arxitektor Mig “Sevgi qasri”ni qurdi. Ibodatxona yaqinida boshqa korinf ustunli, ayvonli, oʻsimliklar bilan bezatilgan, tagida “Sevgi haykali” turgan gumbazli ibodatxona mavjud. Germaniya manzara bogʻlari. Manzara bogʻlari Germaniyada ham qurildi. Ularning qatoridan saroy-bogʻ ansambli joy olgan.*San-Susi (Potsdam)*.²³ 290, 3 ga maydonga ega boʻlgan San-Susi XVIII asr oʻrtalarida qurildi. Arxitektor G.V.Knobelslorf (1699-1753) uning birinchi quruvchisi boʻldi, uning loyihasiga koʻra saroy va olti ayvonli va zinapoyali parter qurildi. Zinapoya bogʻni gʻarbdan sharqqa kesib oʻtuvchi 2,5 km uzunlikdagi bosh hiyobonga olib boradi. Bogʻda arxitektura inshootlari koʻp, ulardan eng qiziqarlisi kartina galereyasidir (tarixda birinchi kartinalar muzeyi). Bogʻda tropik oʻsimliklari uchun 300 m uzunlikdagi oranjereya joylashtirildi. Keyinchalik XIX asrda San-Susida taniqli nemis landshaft arxitektori P.I.Lenne ishladi. Bogʻ, suv havzalari va oʻsimliklarning hozirgi ahvoli bogʻga katta eʼtibor berilayotganligidan darak beradi. Kompleksning barcha tarmoqlari va kartina galereyasi orasidagi parter-gulxona, uzumzor, gulzor, Sitsiliya bogʻi, Shimoliy bogʻ, Charlottenxof bogʻi, Marli bogʻi bogʻ-park

²³ Горохов В.А., Лунц Л.Б. Парки мира. М., Стройиздат, 1985, 53 bet.

san'atining haqqoniy yodgorligi hisoblanadi. Bu yerdagi daraxtlar, maysazor, turli butalardan qirqib hosil qilingan jonli devorlar, gulzorlar xuddi qadimgi gravyuralardan kirib kelgandek. Ayniqsa sharsimon qilib o'stirilgan baland (4-5m) lipalar, piramidasimon qirqilgan tissalar, murakkab geometrik shaklli jonli devorlar hayratga soladi. Nemis manzara bog'laridan bog'-park san'atining yirik nazariyotchisi, asarlari hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan G.Pyukler (1785-1871) XIX asrning birinchi choragida yaratgan *Muskau bog'i* mashhur bo'lgan.²⁴ 1250 ga maydoni bo'lgan Muskau bog'i Neyse daryosi vodiysida joylashgan. Saroy bog'ning kompozitsiyasidagi asosiy element hisoblanadi. Bog'da romantik inshootlar mavjud emas, manzara ko'rinishlarini landshaftning tabiiy tarkibiy qismlari tashkil etadi. Shakldor gulzorlar va klumbalar bilan bezatilgan eman, lipa, chinor daraxtlari ekilgan. 122 ga maydonda F.Ermandsdorf (1736-1800) va D.Yeyzerbek (1734-1817) qurgan Dessau (1769-1817) yonidagi *Verliti* bog'ini Germaniyaning o'ziga xos manzara bog'laridan hisoblanadi.²⁵

Bog'da xitoycha ibodat, bog' ko'priklari, tosh ibodatlari va boshqa bezak elementlari va syurprizlar bilan to'lib toshgan. Saroyga qarab ochilgan yashil maydonlar, "Venera ibodatxonasi" pavilyoni, "Atirgullar oroli" bilan tabiiy daryo, boy o'simliklar olami bog'ning o'ziga xos xususiyati bo'lib qoldi. Bog'ning kompozitsion o'qi hisoblangan Ilm daryosi joylashgan Vaymardagi Gyote bog'i Germaniyaning ajoyib manzara bog'i hisoblanadi.²⁶ Daryoning ikki yonida daraxtlar va butalar guruh qilib ekilgan. Romantik inshootlar ham qisman saqlanib qolgan. I.Gyotening bog' uyi ham shu yerda joylashgan.

Umuman olganda Yevropaning XVIII va XIX asrdagi manzarali uslubiy yo'nalishiga quyidagi xususiyatlar xos bo'ldi

1. Tabiiy landshaftning shakllari va go'zalligi asosiy park hosil qiluvchi omil bo'lib qoldi.

²⁴ Боговая И.О., Фурсова Л.М. Ландшафтное искусство. М., 1988, 62 bet.

²⁵ O'sha joyda.

²⁶ Стойчев Л. Парковое и ландшафтное искусство. София, 1962, 60 bet.

2. Ham bog‘da ham undan tashqarida bog‘lar guruhi, manzara ko‘rinishini yaratish uchun katta maydonlar.
3. Odam serob serob bo‘ladigan joy va erkin hiyobonlar bog‘ kompozitsiyasida assimetriya hosil qilgan
4. Suv-bog‘ omili. Orolli ko‘llar, daryolar va shovvalar go‘zallikni kuchaytirishga va go‘zal o‘simliklar dunyosini yaratishga xizmat qiladi.
5. O‘simliklar jonlantirish omili hisoblanadi. Xilma-xil, erkin o‘sayotgan daraxtlar, butalar guruhi va bir o‘zi bog‘ maydonini bezaydi va yorug‘lik-soya o‘yinini yaratadi. Gullar kam uchraydi va dala o‘tloqlarga tarqatib yuboriladi.
6. Arxitektura inshootlari bog‘ kompozitsiyasidagi mustaqil birlik hisoblanadi va manzarani boyitishga xizmat qiladi.
7. Ochiq makondagi o‘tloqlar, maysazorlar o‘simliklarni taqsimlashda mohir kompozitsiya tashkil etish natijasi hisoblanadi. Mamlakatimizda va xorijda rivojlanish, dam olish va ko‘ngil ochishning xilma-xil turlari tekis taqsimlangan ko‘p vazifali bog‘lar yaratish bilan bir qatorda shahar va shahardan tashqaridagi bog‘larni ixtisoslashtirishga intilish paydo bo‘ldi. Quyidagi omillar bog‘lar va parklar ixtisoslashuv jarayonini rivojlantirishga turtki berdi: a) dam olishni tashkil etishning shakllarini tanlashga bo‘lgan ehtiyojni ortishi; b) shahar va tumanlar markazlarini rejalashtirishning ixtisoslashuvi; zakovat (fan, ta‘lim, dam olish va turizm, kurortlar va boshqalar) shaharchasiga ixtisoslashish; v) xizmatlarni va iqtisodiy samaradorlikning yuksak darajasiga erishish uchun kooperatsiyalar, ixtisoslashgan bog‘ jamoatchilik markazlari imkoniyatlari; g) dam olishni tashkil etishning turli shakllarini tanlash erkinligi va dam olish qulayligini ta‘minlash zarurati; d) aholining harakatchanligini oshirish va ommaviy dam olishning yangi maxsus shakllarini paydo bo‘lishi; ye) rekreatsion xududlardan samarali foydalanishga intilish; j) tabiatni asrash, ekologik talablarni hisobga olib dam olish turlarini tashkil etish uchun joylarni ajratish; z) axborot va ko‘ngilochishning yangi shakllarini rivojlantirish va shahar tizimida ularni tabaqalashtirish. Bog‘lar

rekreatsion vazifalardan biri muhimroq bo'lgan paytda yoki yosh xususiyatiga ko'ra (bolalar, yoshlar, kattalar uchun bog'lar) singari ikki holatda bog'larning ixtisoslashuvi amalga oshiriladi. Ixtisoslashtirilgan bog'lar madaniy landshaft elementlari (ko'rgazma va tomosha-attraksion bog'lari) yoki tabiiy tabiatni (tabiiy bog'lar) imkon qadar saqlab qolib yaratilishi mumkin.

Ixtisoslashtirilgan bog'larning xorijiy loyihalari. 60-yillar boshida Angliyada 16 ta ixtisoslashtirilgan bog'lari bilan London aholisi uchun Li daryosi vodiysida tashkiliy loyiha ishlab chiqildi.²⁷ 40 km atrofida masofaga cho'zilgan bog'lar "zanjiri" 65 ming tomoshabinga mo'ljallangan stadioni bilan sport ko'ngilochar bog'i, "Ertakona saroyi" bilan bolalar bog'i, suvda damolish bog'i, qayiq va eshkak eshish sporti markazi, yoshlar bog'i, osoyishta dam olish va sayr qilish bog'i, tomosha va jismoniy tarbiya sog'lomlashtirish komplekslari. Bog'lar ixtisoslashuviga ko'ra bir-biridan 8-12 dan 618 ga kattaligi bo'yicha farqlanadi. Uzoqdagi tabiiy landshaftlarni himoya qilish, shu bilan birga shahar aholisiga uzoqqa borib o'tirmasidan har xil dam olish shakllarini taqdim etishga qaratilgan "shahar yonidagi" bog'larni ixtisoslashuvi g'oyasi Tissayd ingliz aglomeratsiyasi rivojlantirish loyihasida mavjud bo'lgan. 1972 yili Varshava urbanistika va arxitektura instituti Polshaning yirik shaharlarida ommaviy tashrif buyurish uchun ixtisoslashgan bog'lar tizimini loyihalashtirish bo'yicha hisob-kitob ko'rsatkichlarini ishlab chiqdi.²⁸ O'yin va sport bog'lari, sog'lomlashtirish jismoniy tarbiya, osoyishta dam olish va sayr qilish, ko'ngilochar bog'larning tarmoqlarini tashkil qilishga tavsiya berildi. Shahar ko'kalamzorlashtirish tizimini qayta qurishda aholi yashaydigan joylarda jismoniy tarbiya va dam olish, ko'ngil ochish, attraksionlar, tomoshalar joylari rivojlantirildi. Vena markazida Dunay daryosida uzunligi 20 km va eni 200 m² bo'lgan yangi sun'iy orol yaratildi.²⁹ Bu orolda shuningdek qator joylashgan ixtisoslashtirilgan bog'lar tizimi tashkil etildi.

²⁷ Хромов Ю.Б. Планировка и оборудование садов и парков. Л.,1974., 30 bet.

²⁸ Хромов Ю.Б. Планировка и оборудование садов и парков. Л.,1974., 30 bet.

²⁹ O'sha joyda.

Cho‘milish va suv sporti bog‘laridan keyin sport-o‘yin bog‘lari, so‘ngra osoyishta dam olish bog‘lari, “baliqchilar bog‘lari” joylashdi.

Moskvalik parkshunos tadqiqotchilar tomonidan bog‘larning quyidagi turlari taklif etildi:

Rivojlangan madaniy-oqartuv va tomoshalar tarmog‘i bo‘lgan parklar va bog‘lar.

Osoyishta dam olish va sayr qilish, shuningdek tarixiy muzey bog‘lari.

Suvda dam olish bog‘lari.

Turli dam olish turlari tekis taqsimlangan bog‘lar.

Bolalar shahar va tuman bog‘lari.

1960 yili L.L.Shreter, A.G.Lelyakova va O.N.Bashinskiy singari arxitektorlar tomonidan 450 ga maydonda Janubiy Primore bog‘i yaratildi.³⁰ Bog‘ nimjon butalar bilan qoplangan botqoq joyda barpo etildi. Ko‘rfazdan qirg‘oqqa tuproq tashib keltirilganligi tufayli bog‘ maydoni 2 metr ga ko‘tarildi, shundan so‘ng rejalashtirish ishlari boshlandi. Bog‘da bosh maydon va esplanadali me‘moriy xudud, “Xalqlar do‘stligi” maydoni xududi, qirg‘oq chegarasi hududi, 25 ming tomoshabinga mo‘ljallangan stadioni bilan sport xududi, attraksionlar shaharchasi, bolalar o‘yinlari bo‘lagi, ichki suv havzali va daraxtzorli dam olish xududi singari 7 landshaft xududlar tashkil etildi. Bog‘ ansambli kompozitsiyasi bosh xududlarning geometrik shaklli tuzilishini, o‘rmon, daraxtzor, maysazor tabiiy manzaralari, dengiz kengliklarini ichki bog‘ manzaralari bilan qarama-qarshi qo‘yish yo‘li bilan barpo etildi. Janubiy Primore bog‘i loyihasida o‘tmishdagi rus bog‘-park usullarini zamonaviy landshaft kompozitsiyalari bilan uyg‘unlashtirib ijodiy rivojlantirilganligi seziladi. 600 ga maydonga ega bo‘lgan Katovitskiy madaniyat va istirohat bog‘i (Polsha) loyihasi 1951 yili professor V.Nemirovskiy boshchiligidagi loyihachilar jamoasi tomonidan amalga oshirilgan.³¹ Katovitskiy

³⁰ Жирнов А.Д. Искусство паркостроения. Львов, 1977, 73 бет.

³¹ Николаевская З.А. Садово-парковый ландшафт. М.,1989, 331 бет.

bog‘i dam olish shakllarini erkin tanlash mumkin bo‘lgan dam olish, rivojlanish va ko‘ngil ochish turli komplekslarini o‘z ichiga olgan ko‘p vazifali zamonaviy bog‘larni rejalashtirish va jihozlashga yorqin qiziqarli misol bo‘la oladi. Bu joy ko‘mir shaxtalari, tosh karyerlari, uyumlari qolgan botqoqlik kenglik bo‘lgan. Katta karyerlar va botqoqliklar suv havzalari tizimiga aylantirildi, ulardan 3 km uzunlikda sayr yo‘lagi bilan makoniy kompozitsiyaning bosh o‘qi tashkil qilingan. Suv havzalaridan eshkak eshigi kanali bo‘lgan suv sporti markazi, suzish havzasi va suvga sakrash hovuzi, yelkanli kemalar uchun ko‘l, cho‘milish kompleksi kabilarni tashkil etish uchun foydalanildi. Kompozitsiya o‘qi bo‘ylab joylashtirilgan attraksionlar shaharchasi, hayvonot bog‘i, gulchilik ko‘rgazmasi, 120 ming tomoshabinga mo‘ljallangan stadion, ochiq teatr, planetariy singari o‘n bir tematik xududlar yaratish bog‘ni universal qilish g‘oyasi bo‘lgan. Osoyishta dam olish va sayr qilish turlari uchun manzarador o‘tloqlar, daraxtzorlar, butazorlardan iborat maydonlar qurilgan.

Ko‘p vazifali madaniyat, istirohat va ko‘ngilochar bog‘lar. G‘arbiy Yevropa va Yaponiya shaharlari atrofidagi bog‘lar. “Amsterdam o‘rmoni” G‘arbiy Yevropadagi ko‘p vazifali eng yirik bog‘ hisoblanadi.³² U Amsterdam shahrining chetida joylashgan va dengiz hisobidan o‘zlashtirilgan 895 ga maydonga ega. Bog‘ 1934 yili arxitektor Kornelius van Estern loyihasiga ko‘ra qurildi. Loyihada 400 ga o‘rmon xususiyatiga ega bo‘lgan maydon, 200 ga sport maydoni, 100 ga o‘yin uchun yalanglik qurish ko‘zda tutilgan edi. Qolgan xududga suv havzalari va yo‘llar qurildi.

Bog‘ni qurish ishlari quyidagi bosqichlarda bajarildi:

1) melioratsiya ishlari, yo‘llar qurish, hovuz va kanallar qurish;

2) daraxtlar o‘tkazish;

3) o‘simliklar ekish, ko‘priklar va bog‘ inshootlari qurish.

³² Залесская Л.С. Ландшафтная архитектура. М.,1963, 92 бет.

2 km uzunlikdagi eshkak eshish kanali, shuningdek xududni namsizlantirish uchun zarur bo'lgan ko'l va oqovalar tizimi bog'ning kompozitsion o'qi hisoblanadi. O'q bo'ylamasiga 400 m, eniga 250 m uzunlikdagi katta ko'l bu tizimda markaziy o'rin egallaydi. Suv havzalari suv sporti musobaqalarini o'tkazish, cho'milish va baliq ovlash joyi hisoblanadi. Ko'l va ariqlar qurish paytida to'plangan tuproqdan 15 m balandlikdagi sun'iy tepalik, ijada uchish uchun tik tepalikdan iborat 20 ga maydondan iborat bog' mikrorelyefini yaratish uchun foydalanildi. "Amsterdam o'rmoni"ni yaratish XX asr bog' arxitekturasida yangi usul shakllanishini boshi bo'ldi, u yirik hajmli makoniy shaklning soddaligi va yorqinligi, zamonaviy fan yutuqlari, yangi texnika, sanoat qurilishi metodlaridan foydalanilganligi bilan ajralib turadi. "Amsterdam o'rmoni" bog'ining arxitektura rejalash prinsiplari Rimning ommaviy dam olish zonasi hisoblangan Konstantin bog'i loyihasida o'z aksini topdi.³³ 475 ga maydonga ega bo'lgan Konstantin bog'i arxitektor D.Ortenzi loyihasi bo'yicha Tibr daryosining o'ng qirg'og'ida, Rimning umumshahar markazidan 11 km uzunlikda yaratildi. Ko'p vazifali bog' tarkibiga spor to'yinlari, cho'milish va suv sporti, ko'ngilochish va attraksionlar, osoyishta dam olish, madaniy-oqartuv va tomosha komplekslari, shuningdek botanika bog'i va akvarium kabilardan iborat yoshlar markazi kiradi. Damolish zonasi bilan ko'rgazma zal, axborot xizmati, ma'muriy binolari bo'lgan madaniyat markazi bilan chegaradosh. Kichikroq raqs maydonlari, estradalar bilan birga bog'da kinoseanslar, ma'ruzalar, konsertlar, musiqa festivallari o'tkaziladigan 2000 tomoshabinga mo'ljallangan katta ochiq teatr mavjud. Bog'ning butun xududi bo'ylab bolalar o'ynashi, kattalar dam olishi uchun maydonlar, kafelar, restoranlar, kiosklar, xizmat pavilyonlari ketma-ket joylashtirilgan. Bog' daraxtzorlari va maydonlari 300 ga maydonni egallagan. Bog' maydoniga 7 m oraliqda 70 mingdan ortiq paxmoq o'sadigan soya beradigan daraxtlar o'stirilgan. Shahar aholisining dam olishiga bo'lgan ehtiyojini hisobga olib Aki daryosi vodiysida, Tokio atrofida

³³ Хромов Ю.Б. Планировка и оборудование садов и парков. Л.,1974, 35 бет.

132 ga maydonda ko‘p vazifali bog‘ qurilishi loyihalashtirilgan edi.³⁴ Bir paytda 24 ming kishi dam olishiga mo‘ljallangan “shahar ostonasidagi” bog‘ chiroyli tepaliklari bo‘lgan xududda joylashgan. Bog‘ni 4 asosiy vazifaviy zonaga bo‘lishda tabiiy landshaftdan unumli foydalanilgan. Bog‘ning sharq qismidagi asosiy kirish joyida tekisroq xududda restoran, motel, arqonli va bir relsli bog‘ bo‘ylab yuradigan yo‘llarga o‘tirg‘iziladigan joy, ma‘muriy xonalar joylashtirilgan. Bog‘ning markazidagi baland tepalik joyida yopiq “Sammerlend” attraksioni va ko‘ngilochar o‘yinlari, suzish havzasi, o‘yinlar uchun maydonlar, solyariy va dam olish yalangligi joylashtirilgan. Bog‘ning kompozitsiyasi to‘g‘ri chiziq bo‘ylab davom etib ippodrom, yengil atletika maydonchalari, otlar minib yuriladigan yo‘laklar, beysbol, tennis va basketbol maydoni, restoran singari komplekslar bilan yakunlanadi.

Rur viloyatidagi (Germaniya) shahardan tashqari bog‘lar tizimi. Rur sanoat o‘lkasidagi yirik bog‘larni tashkil etilishi katta qiziqish uyg‘otadi.

Nemis shaharsozlari ishlab chiqqan klassifikatsiyada bog‘lar va dam olish xududlarining quyidagi turlari ko‘rsatilgan:

- a) xududiy ahamiyatga ega bo‘lgan tabiiy landshaftlar va 1000 ga maydonga ega bo‘lgan yirik suv havzalarga ega bo‘lgan tabiiy bog‘lar va “bo‘sh vaqt markazlari”;
- b) kamida 25 ga maydonga ega bo‘lgan kundalik “faol” dam olish va hafta oxirida dam olish uchun mo‘ljallangan “bo‘sh vaqt bog‘lari”. Bu bog‘lar kamida 50 ga tabiiy landshaft maydonida osoyishta dam olish uchun yirik zonalarga tutashadi;
- v) kamida 100 ga osoyishta dam olish maydoni bo‘lgan tabiiy yoki madaniy landshaft qo‘shimcha qilingan kamida 15 ga maydoni bo‘lgan

³⁴ Хромов Ю.Б. Планировка и оборудование садов и парков. Л.,1974, 35 бет.

o‘yin, sport va cho‘milish kabilarga mo‘ljallangan “bo‘sh vaqt komplekslari”;

g) osoyishta dam olishga mo‘ljallangan “bo‘sh vaqt zonalari”;

d) hafta oxirida dam olish uchun kempinglari, shahardan tashqari uylar komplekslari bo‘lgan “bo‘sh vaqtda yashash markazlari” bog‘ zonalari. Rur viloyatida 5 shaharlararo “bo‘sh vaqt bog‘lari” yaratishga mo‘ljallangan, ular asosan erkin harakat o‘yinlari, cho‘milish, sayr qilishga xizmat qiladi, ularda barcha yoshdagilarga oilaviy va individual tarzda dam olishlari mumkin. Birinchi Geyzenberg “bo‘sh vaqt bog‘i” arxitektorlar Soze-Xersmann va Abraxamson loyihasiga ko‘ra Xern shahri yonida 1968 yili qurilishi boshlandi.³⁵ Bog‘da kirish, “muloqot”, suzish havzasi, sayr vao‘yin zonalari, xizmat komplekslarini o‘z ichiga oladi. Barcha bog‘ maydonlarini bir-biriga bog‘lovchi xalqa sayr yo‘laklari bilan o‘ralgan keng yalanglik bog‘ kompozitsiyasi markazi hisoblanadi. Asosiy kirish joyida “bo‘sh vaqt uyi”, ko‘rgazma va o‘quv zali, jismoniy tarbiya maydoni, ma‘muriy va axborot xizmati binolarin io‘z ichiga olgan madaniy-oqartuv kompleksi joylashgan. “Muloqot zonasi”da kafe, restoran, musiqa pavilyoni, raqs maydoni, favvoralar, suzish havzalari joylashgan. Maxsus o‘yin zonasida mini-golf, stol tennisi, kroket, kegel o‘yinlari, bolalar uchun velosiped va pedalli avtomobillarda yurish uchun trek, bolalarni ponida sayr qilishi uchun maydon joylashtirilgan. Sayr zonasida osoyishta dam olish maydoni, maysa ustida dam olish uchun o‘tloq, stol o‘yinlari uchun maydon, chiroyli gullar bog‘lari mavjud. *AQSH shaharlaridagi aholi yashaydigan xududlarda joylashgan bog‘lar.* AQSH shaharlaridagi aholi istiqomat joylar ko‘p vazifali bog‘lari tarkibida bolalar, o‘smirlar va yoshlar sport mashg‘ulotlari o‘yini uchun joylar ko‘pchilikni tashkil qiladi.³⁶ Korte-Madera xududidagi aholi istiqomat joyidagi bog‘ 15 ga maydonga ega va maktab hovlisi bilan yonma-yon joylashgan. Amerika shaharsozligiga xos

³⁵ Хромов Ю.Б. Планировка и оборудование садов и парков. Л.,1974, 30 бет.

³⁶ Верзилин Н. По садам и паркам мира. Л., 1988, 101 бет.

bo'lgan aholi istiqomat joylaridagi bog' xududlari va maktab uchastkalarini birlashtirish bog'ning turli o'yin va sport maydonlaridan unumli foydalanish imkonini berdi. Maktab sport maydoniga shimol tomondan kelib yondashgan to'p o'yinlari uchun katta maydon Korte-Madera bog'i kompozitsiyasining markazi hisoblanadi. Maydon atrofida bolalar, kattalar va pensionerlar turli guruhlar uchun o'yin va dam olish joylari shakllantiriladi. Bog'ning janubiy tomonidagi jamoatchilik markazi binosiga kattalar o'yini, dam olish uchun maydon, ochiq teatr tutashib ketgan. G'arbiy sektorda yoshlar o'yini va dam olish kompleksi, suzish havzasi, tennis kortlari joylashtirilgan. Markaziy maydonga shimoliy-g'arbdan suzish havzasi bo'lgan bolalar o'yin kompleksi, sharqdan baliq tutiladigan sun'iy suv havzasi va kamondan o'q otish stendidan ko'ngilochar kompleks tutashib turadi. Bog'ning turli joylarida "oilaviy dam olinadigan" maydonlar joylashtirilgan.

Lakvud aholi istiqomat joyidagi boshqa amerikacha bog' kompozitsiyasi suv havzasi va o'yin, dam olish uchun maydon kontrastida tuzilgan. Bog'da quyidagi zonalar mavjud: a) baliq ovi uchun hovuz, xizmat pavilyoni bilan suzish havzasi, favvorali suzish havzasi va tabiat qo'ynida dam olish uchun maydonlari bilan dam olish va ko'ngilochar zonasi; b) jamoatchilik markazi va yuvinish suv havzasi binosiga tutashib ketgan bolalar o'yini zonasi; v) sport turidagi mustahkam maysali katta o'tloq atrofida birlashtirilgan sport maydoni bilan erkin o'yin va dam olish zonasi, pikniklar va o'yinlar maydoni. Shaharlardagi aholi istiqomat joylaridagi amerikacha bog'lar maydonida va vazifaviy zona chegaralarida kamroq sonli daraxtlar va bog' chetida butalar guruhi uchraydi.

Ixtisoslashgan jismoniy tarbiya va sport bog'lari, dam olish, o'yin va bolalar bog'lari. Fan va texnikaning jadal rivojlanishi davridagi urbanlashuv jarayonida barcha yoshdagi kishilarning uyg'un rivojlanishi uchun zarur bo'lgan sog'lomlashtirish jismoniy tarbiya, sport va o'yin komplekslari shahar markazlarini tashkil qilish muhim muammo hisoblanadi. Hozirgi paytda jahon shaharsozlik amaliyotida shaharlarda sog'lomlashtirish markazlari, sport va o'yin komplekslari

qurilmoqda. *Sport bog'lari*. 1965 yili Krasnoyarskdagi dam olish orolida yirik sport-sog'lomlashtirish bog'i qurilishi boshlandi.³⁷ Bog' kompozitsiyasi erkin ishlangan, lekin uning asosiy rejadagi o'qi tashrif buyuruvchilar harakati yo'llariga mos kelgan, ular bog'ni faol va osoyishta dam olish va sayr qilish bilan bog'liq ikki qismga bo'lgan. Bog'ning 30 ming tomoshabinga mo'ljallangan markaziy maydoni, 6 ming kishilik sport-konsertzali, kichik sport zali, ochiq va yopiq suzish havzalari, yassi sport inshootlari, xizmat ko'rsatish pavilyoni kabi inshootlari butun maydonning markazi hisoblanadi. Doira shaklidagi egarsimon stadion bog' maydonida asosiy bino hisoblanadi va uzoq tog'larda ko'rinib turadigan daryolar tabiati bilan uzviy bog'lanib ketgan. Bog'ning ko'pgina qismi bolalar zonasi qilib belgilangan. Chiroyli hiyobonlardan iborat manzarali bog' dam olish zonasi hisoblanadi. 1967 yili Trambledagi Parij markazidan 10 km masofada arxitektor A.Burbonne loyihasi yangi sport dam olish va ko'ngilochish bog'i qurilish boshlandi.³⁸ Bog' 75 ga maydonni egallagan, shundan 35 ga sport kompleksi, 30 ga dam olish va sayr qilish va 10 ga maydon 3 mingta avtomobil sig'adigan avtostoyankaga ajratilgan. Tramble bog'i rejasida XX asr ikkinchi yarmi fransuz bog'-park san'atiga xos bo'lgan ko'pgina kompozitsion usullar o'z aksini topgan. Doimiy faoliyat ko'rsatuvchi fransuz klassik bog'lari kabi Tramble bog'i rejasi asosiga uning har qanday nuqtasida ko'rinib turadigan nur kompozitsiyasi qo'yilgan. Zamonaviy Fransiyada keng tarqalgan sun'iy tepaliklarni badiiy "modellashtirish"dan bog'da markaziy dam olish zonasi atrofini ko'tarish va bog'ga yassi ellips idish shaklini berish tizimini yaratish uchun foydalanildi. Shvetsiyaning Gevle shahrida "Masbergets" sog'lomlashtirish jismoniy tarbiya va sport rekreatsion kompleksi arxitektorlar YE.Anborgava B.Xakan loyihasi bo'yicha yaratildi.³⁹ 16 ga maydonni egallagan kompleks 4 futbol maydoni, 4 tennis korti, qo'l to'pi uchun maydonni, 5 voleybol va basketbol maydonini, 9 badminton maydoni, 0,6 ga modellarni sinash maydonini, dam olish uchun katta

³⁷ Горохов В.А., Луниц Л.Б. Парки мира. М., Стройиздат, 1985, 173 bet.

³⁸ Боговая И.О., Фурсова Л.М. Ландшафтное искусство. М.,1988, 64 bet.

³⁹ Хромов Ю.Б. Планировка и оборудование садов и парков. Л.,1974, 44 bet.

o'tloqni, 2,9 ga erkin o'yinlar va bayramlar o'tkazish joyini o'z ichiga oladi. Janubiy sharqiy zonada suvi isitilgan cho'milish va yuvinish basseyni, shuningdek sun'iy to'lqin hosil qilinadigan basseyn-atraktsionni o'z ichiga oladi. Bog'ning g'arbiy qismidagi 20 va 30 m balandlikdagi tepaliklar lija, chanada uchish va tramlindan sakrash uchun mo'ljallangan. Qishki mavsumda to'p o'yini maydoni konkida uchish maydoni, markaziy o'tloq esa lijada sayr qilishga moslashtiriladi. Germaniya va Finlandiyadagi sport bog'lari asosan sayr qilish, maysa ustida o'ynash va dam olish, shuningdek sport bilan shug'ullanish uchunmo'ljallaniladi. Arxitektor Konviars loyihalagan Germaniyadagi Roytlingene shahridagi 70 ga maydonga ega bo'lgan sport bog'i zonalarini vazifasiga ko'ra aniq belgilangani, 9 ga maydondagi cho'milish, erkin o'yinlar va dam olish va sport maydonchalarni yashil o'simliklar bilan o'ralgani xos xususiyat bo'lib qoldi.⁴⁰ Ochiq joylarning kengligi, markaziy yalanglikning atrofdagi maysazor va o'rmon bilan uyg'unligi, bezakdor erkin joylashuv kabilar Roytlingenedagi xalq sporti bog'ining xususiyati hisoblanadi. Finlandiyadagi Riximiyaki shahri sport bog'idagi sport va cho'milish zonasiga tomosha va ko'ngilochish komplekslari kelib tutashadi. Yaxlit kompleks sportyadro, yozgi estrada va ommaviy bayramlar uchun ayvonlardan iborat. Sport, o'yin, cho'milish uchun maydon va pavilyonlar, tomosha komplekslari katta yo'l tomonidan bog'ning asosiy kirish joyiga imkon qadar yaqinlashtirilgan. Daniyaning Odense shahridagi sport bog'i (arxitektorlar A.Tomsen, O.Klaaborg, A.Lindkolt va G.Moos) ayvonlarda joylashtirilgan ixcham sport maydonlari kompleksidan iborat. Bog'ning arxitektonikligini maydonchalar, yo'laklar, chiroyli shakl berilgan daraxtlar va yashil daraxtlar bilan o'ralgan bog'ning cho'zinchoq shakli ko'rsatib turadi. Turli maqsadlar uchun mo'ljallangan maydonlarni ixcham shaklda ayvonlarga joylashtirish usulini zamonaviy ingliz landshaft arxitektori Jelliko birinchi bo'lib qo'lladi. Daniyalik arxitektorlar maydonning bo'ylamasiga ajratib turuvchi g'ovlarni yaratish, daraxtlar va butalarni qirqib shakl berish yo'li jonli "yashil devorlar" shakllantirish orqali sun'iy relyefni modellashtirish

⁴⁰ Залеская Л.С. Ландшафтная архитектура. М.,1963, 91 бет.

Daniyaning zamonaviy bog‘-park san’ati uchun xos bo‘lgan usuldan foydalanib Odenseda ko‘p darajali ixcham sport kompleksini yaratdilar. 4 ming tomoshabinga mo‘ljallangan futbol maydoni, erkin o‘yinlar uchun maydon, 8 tennis korti, dam olish uchun bog‘dagi klub binosi, restoran sport bog‘i tarkibiga kiritilgan. Asosiy kirish joyidan stadiona tunnel orqali kiriladi. Tepalikning yassi cho‘qqisiga joylashtirilgan futbol maydonini o‘rab turuvchi yashil to‘siqlar turlicha balandlikka ega. Sun‘iy relyefni geoplastik-badiiy modellashtirish o‘yin maydonlaridagi tomoshabinlarni qo‘shni maydonlarda vujudga keladigan shovqinlardan asrashga xizmat qiladi.

Jismoniy tarbiya va sog‘lomlashtirish bog‘lari va dam olish markazlari. Ayniqsa kurort shaharlarda davolash jismoniy tarbiya va umumiy jismoniy tayyorgarlik ixtisoslashtirilgan bog‘lari keng tarqaldi.⁴¹ 1952 yili Litvadagi Druskininkay kurort-shahrida shu turdagi bog‘larning birinchisi yaratildi. 1969 yil arxitektor L.Dringelis va injener R.Pilkauskas loyihasiga ko‘ra bog‘ to‘la qayta ta’mirlandi. Bog‘ hududi bolalar, erkaklar, ayollar va umumiy sport joylaridan iborat to‘rtta zonaga ajratilgan. Bog‘da davolash jismoniy tarbiyasi uchun maydon va pavilyonlar tarmog‘i, ionoterapiya uchun maydon, bioklimat davolash, isitilgan basseynlar, chiniqish uchun kaskad cho‘milish zonalari yaratilgan.

Shveysariyaning yarim millionli aholisi bo‘lgan Syurix shahrida 1967 yili barcha yoshdagi aholi shug‘ullanishi uchun mo‘ljallangan umumiy jismoniy tayyorgarlik bog‘i qurilgan. Bog‘da nihoyatda soddalashtirilgan gimnastika uskunalari (turnik, brus, xalqa, xoda) bilan jihozlangan terrenkurali va 20 maydonli 2-3 km uzunlikdagi uchastka joylashtirilgan. Maydonlarda marshrutlardagi ayrim nuqtalar orasidagi masofa ko‘rsatkichlari va tavsiya etilayotgan mashqlar tasvirlangan shitlar o‘rnatilgan.

⁴¹Горохов В.А., Лунц Л.Б. Парки мира. М., Стройиздат, 1985, 175 bet.

Syurixda dam olish jamoatchilik markazlarini tashkil etilganligi diqqatga sazovor, ular shahar va rayonlarda bir tekisda joylashtirilgan. Dam olish markazi hisoblangan rayon bog‘i aholi turar joyidan 1 km atrofida joylashtirilgan. Syurixni ko‘kalamzorlashtirishning bosh rejasida ayrim dam olish markazlarini maktab komplekslari, tuman madaniyat uylari, yoshlar klublari yoki sport komplekslari bilan birlashtirish ko‘zda tutilgan. Ko‘pgina dam olish markazlari umumshahar tuman ahamiyatiga ega bo‘lgan yashil zonalarda joylashtirildi. Turli yoshdagi kishilarni tabiat qo‘ynida doimiy faol dam olishga jalb qilish dam olish markazlarini yaratishning bosh g‘oyasi bo‘lgan.

Hovuzlarda, sayr uchun yo‘laklarda osoyishta dam olish zonasi; erkin o‘yinlar va suzish va yuvinish havzalarida cho‘milish, maysa va qattiq qoplamli o‘yin maydonlari, gimnastika maydonlari va pavilyonlari, shuningdek bolalar “qurilish” maydonlari zonalari; tarkibiga o‘yinlar, ma’ruzalar, konsertlar, havaskorlik spektakllari, havaskorlik mehnati bilan shug‘ullaniladigan ustaxonalar, bolalar va kattalar kutubxonlari kirgan madaniy-oqartuv zonalari shunday markazlarning asosiy elementlari hisoblanadi.

Shveysariya va Shvetsiyadagi o‘yin bog‘lari. Syurix va Shveysariyaning boshqa shaharlaridagi barcha yoshdagi kishilar guruhlar uchun dam olish markazlari qatorida bolalar va o‘smirlar uchun ixtisoslashtirilgan markazlar keng tarqaldi.⁴² 1 ga maydonni egallagan “Vildermetmatte” bolalar bog‘i ana shunday bolalar markazlaridan biri hisoblanadi, uning tarkibiga o‘yinlar uchun bino, Robinzon qurilish maydoni, 10-12 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun maydon, sport o‘yinlari uchun hovuzlar va maydonlar, chanada uchish tepaligi, ko‘cha harakati qoidalariga o‘rgatish uchun maydon kabilar kiradi. 15 yoshgacha bo‘lgan bolalar va o‘smirlarning o‘yin va sport mashg‘ulotlari uchun mo‘ljallangan Stokgolmdagi ixtisoslashgan o‘yin bog‘lari tizimi anchayin e‘tiborni tortadi. Shaharsozlik

⁴² Хромов Ю.Б. Планировка и оборудование садов и парков. Л.,1974, 48 бет.

instituti va Stokgolm bog'lar boshqarmasi tomonidan 1,6-2 ga maydonga ega bo'lgan o'yin bog'larining loyiha-etaloni ishlab chiqildi.

Bu tavsiyalarga ko'ra o'yin bog'i tarkibiga quyidagilar kiritiladi: a) 4 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun 250 m² maydon; b) 4-8 yoshdagi bolalar qum va suv o'ynashlari uchun 1600 m² maydon kompleksi; v) umumiy maydoni 350 m² bo'lgan yosh tabiatshunoslar va bolalarni tanishtirish uchun bog'; g) sarguzasht va qurilish o'yinlari uchun 1800 m² bo'lgan Robinzon maydoni; d) 9-15 yoshli bolalar erkin o'ynashlari uchun 3000 m² maydon va 1100 m² futbol maydoni; ye) 150 m² o'yinlar uchun maydon, xizmat ko'rsatuvchi xodimlar turishi va uskunalar saqlash uchun xona; j) 9000-10000 m² tabiiy landshaft, shuningdek 5000 m² yashil o'yin maydoni. Ixtisoslashtirilgan shahar bolalar dam olish zonasini loyihalashtirish prinsiplari Kopengagendagi 1,5 ga maydonli Xvidovr o'yin markazi rejasida aks etgan. Buo'yin markazi turli yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan, shuning uchun bog' xududi 6 yoshdan va 7-14 yoshdagi bolalar uchun sektorlarga aniq ajratib qo'yilgan, shuningdek o'smirlar va yoshlar uchun futbol maydoni bor. Bolalar o'yin markazi landshaft kompozitsiyasida zamonaviy bolalar bog'-park san'ati usullariga xos quyidagi xususiyatlar aks etdi:

- a) aniq geometrik shakldagi maydonlar yaratish;
- b) bog' zonalarini ajratib qo'yish uchun turli balandlikdagi jonli devorlardan did bilan foydalanish;
- v) o'yin va dam olish uchun maydonlarni bo'yilmasiga daraxt va butalarni ixcham guruhlariga birlashtirish.

O'yin va dam olish uchun komplekslari maydonida erkin rivojlanuvchi rejaning geometrik xususiyati imkon bergan o'yin markazi landshaftini shakllantirishning barcha bosqichlarida bog'-park mexanizmidan maksimal foydalanish, relyefni mavjud emasligi. Ixtisoslashtirilgan ko'rgazma bog'lari va ko'ngilochar hamda attraksion bog'lar. Yirik shaharlar va tizimlarda juda katta ijtimoiy-axborot imkoniyatlarni to'planganligi, turli mamlakat xalqlari o'rtasida aloqalarni

rivojlanishi va madaniy axborot almashinuvi jarayoni ko‘plab turdagi ko‘rgazma bog‘larini yaratish imkonini berdi.⁴³ Xalq xo‘jaligi, madaniyat va fan sohalarida yutuqlar bog‘- ko‘rgazmasi. Yashil maydonda ko‘rgazma pavilyonlarini erkin joylashtirish g‘oyasi 1876 yili Filadelfiyadagi Butunjahon ko‘rgazmasida amalga oshirildi. Doimiy bog‘ning ayrim elementlarini uyg‘unlashtirgan holda erkin rejalashtirish prinsipi 1939 yildagi 500 ga maydonga ega bo‘lgan Butunjahon Nyu-york ko‘rgazmasi bog‘ini yaratishda foydalanilgan edi. Bu shahardan tashqaridagi yirik bog‘da ko‘rgazma pavilyonlari uchun 150 ga ajratildi, ko‘kalamzor va suv havzalari bo‘lgan qolgan barcha maydon esa dam olish va ko‘ngilochochish uchun foydalanildi. Bog‘ landshafti bilan o‘ralgan ko‘rgazma komplekslarini shakllantirishning bu prinsipi arxitektor Van-Gutema rahbarligida ishlab chiqilgan 1958 yildagi Bryusselda o‘tkazilgan Butunjahon ko‘rgazmasi loyihasida foydalanildi. Ko‘rgazma umumiy maydoni 200 ga, shundan 115,5 ga maydonni pavilyonlar egalladi, 40 ga yashil maydon va yo‘llar bo‘lsa, o‘tish joylari 44,5 ga bo‘ldi. Bryusseldagi ko‘rgazma qurilishi shuni ko‘rsatdiki, ko‘rgazma bog‘larini tashkil etishda o‘zlashtirilmagan xududdan foydalanish maqsadga muvofiq, negaki “EKSP0-58” xududida pavilyonlarini joylashtirish va yo‘l yotqizish uchun eski qirollik bog‘idagi anchagina qimmatbaho daraxtlarni kesishga to‘g‘ri kelgan edi. “EKSP0-70” Xalqaro ko‘rgazma bosh rejasini Kenzo Tango rahbarligidagi yapon loyihachilari jamoasi ishlab chiqdi. 330 ga maydonga ega bo‘lgan ko‘rgazma bog‘i Osaka shahridan 10 km uzoqlikda tepalik xududlarda joylashtirildi. Kenzo Tango ko‘rgazma bosh rejasini bo‘lajak shahar markazi modeli sifatida ko‘rdi, bu “EKSP0-70” rejasida o‘z aksini topdi, bu yapon arxitekturasiga xos bo‘lgan shoxdor daraxt ko‘rinishdagi bosh rejasida ko‘rindi. Ko‘rgazma xududini shimoldan janubga “daraxt tanasi” bo‘lgan ko‘rgazma jamoatchilik markazi “Ramziy zona” kesib o‘tadi. Temir va avtoyo‘l yonida joylashgan “Ramziy zona” kesishuvi joyida bosh kirish darvozasi joylashgan, bu yerdan tashrif buyuruvchilar

⁴³ Горохов В.А., Луниц Л.Б. Парки мира. М., Стройиздат, 1985, 252 бет.

turli xizmat komplekslariga kirib ketadi. Bosh yo‘l tarmoqlari “tana”ni g‘arbiy, shimoliy va sharqiy qo‘shimcha darvozalari bilan bog‘laydi. Bosh yo‘lning ko‘rinarli nuqtalarida hafta kunlari nomi bilan nomlangan 8 ta maydon yaratilgan, lekin bunda ikkita yakshanba nomi berildi. Maydonlar taqsimlash markazlari bo‘lib xizmat qildi, ularning atrofida turli mamlakatlar va firmalar xuddi “barg” va “meva” singari guruhlashtirildi. Xilma-xil tashrif buyuruvchilarning ehtiyojlarini hisobga olib “EKSP0-70” janubiy-sharqiy qismida “Ekspolend” attraksion va ko‘ngilochish zonasi tashkil etildi, shimoliy qismida qadimgi yapon shaharlari va bog‘lari, mehmonlarni qabul qilish uchun maydonli uy va dam olish yo‘laklari maketlari bilan an’anaviy yapon bog‘i tashkil etilgan. Rur aglomeratsiyasining yirik markazi Essenda 1965 yili “Grug” ko‘rgazma bog‘i qayta ta’mirlandi. Grug-bog‘ faol dam olish, osoyishta dam olish, ko‘rgazmali o‘qitish va ko‘rgazmazallari bo‘lgan bosh darvozasidan iborat 4 vazifaviy zonaga bo‘lingan. Sayr hiyobonlari, kafe, restoran, suv havzasi, gullar va haykallar ko‘rgazmasi bo‘lgan osoyishta, tomoshaviy dam olish zonasi hovuzli botanik bog‘, akvarium, terrarium va kichikroq hayvonot bog‘i kabilardan iborat ilmiy bilish zonasiga tutashib ketgan. Ko‘rgazmali o‘qitish zonasida ko‘rgazmali va o‘quv-ko‘rgazmali bog‘lar, gulzorlar joylashtirilgan. Sayr qilish maysazorlar, tennis kortlari, g‘ildirakli konkida uchish uchun yo‘laklar, to‘p o‘yinlari uchun kichik sport maydonlari, bolalar uchun o‘yin komplekslari, gimnastika kabilarni faol dam olish zonasi o‘z ichiga oladi. Faol va osoyishta dam olish zonalari tutashuvida kutubxona-kioskalar, “o‘quv zallari”, stol tennisi uchun kichikroq komplekslar yaratilgan. Bosh kirish joyda – Grugaxalleda kongress zali va 10 ming tomoshabin sig‘adigan sport zali komplekslari joylashtirildi. Universal zalga 50 ming m² xajmdagi ekspozitsiya zali, ma’muriy va axborot punktlari ochilgan 30 ming m² umumiy maydoni bo‘lgan zali bilan ko‘rgazma qurilish markazi inshootlari komplekslari tutashib turadi.

Bog‘dorchilik va gulchilik bog‘- ko‘rgazmalari. Xorijda bog‘-park san’ati va gullar bilan bezashning zamonaviy usullar namoyish etiladigan bog‘-ko‘rgazma keng

tarqaldi.⁴⁴ 1961 yildan boshlab har yili Erfurtda (Germaniya) bog‘dorchilik va gulchilik ko‘rgazmasi o‘tkazib kelinadi. Turli gul ekspozitsiyalari bu ko‘rgazma bog‘ini shakllantirishda bosh rol o‘ynadi. Gulchilik ko‘rgazmasi ba‘zan Venada o‘tkazib turildi. Donau–bog‘ ko‘rgazma kompleksida “Millatlar bog‘i”, “Haykallar va gullar”, “Atirgul bog‘lari” kabi komplekslar tashkil etildi. “Millatlar bog‘i”da Chexiya, Bolgariya, AQSH, Yaponiya, Shvetsiya, Shveysariya va boshqa mamlakatlarning bog‘-park san’atining turli usullarini namoyish etuvchi ekspozitsiyalar taqdim etiladi. “Del-Este” bog‘i 1961 yili Venesuela poytaxti Karakasda mashhur rangtasvirchi rassom Braziliya bog‘lari rassom-arxitektori R.B.Marks loyihasi asosida yaratildi – bu bog‘ uning bezakli landshaft kompozitsiyalari ko‘rgazmasidir.⁴⁵ R.B.Marksning bog‘lar va parklarni loyihalashtirishga rang tasvir-badiiy asosda yondashuvi bog‘ning o‘tlog‘i, yo‘laklari, gulzorlarini rang va shaklga ko‘ra ayrim elementlarini ta’kidlanganida o‘z aksini topdi. R.B.Marks tomonidan Braziliyada yaratilgan bog‘lar kabi “Del-Este” bog‘i rejasida bir tomondan yapon bog‘ining, boshqa tomondan Lotin Amerikasi mamlakatlarining qadimiy va zamonaviy san’ati ta’siri seziladi. Yapon bog‘i an’analari ta’siri yo‘laklarga tosh yotqizilishi, tosh bo‘laklaridan kompozitsiya plastikasida, suv havzalaridagi tosh ko‘priklarning tasviriy shakli kabilarda ko‘rinadi. Ammo kam sonli tashrif buyuruvchilarga mo‘ljallangan ko‘pgina yapon bog‘laridan farqli R.B.Marks yaratgan jamoatchilik bog‘lari katta maydonni egallaganligi bilan farq qiladi, ularga ilmiy bilish, tomosha, ko‘ngilochochish va sport xususiyatiga ega bo‘lgan komplekslar kiritilgan. 8 ga maydonga ega bo‘lgan “Del-Este” bog‘ida tabiatshunoslik muzeyi, planetariy, ochiq teatr, osoyishta dam olish komplekslari, sport maydonlari, tabiatda dam olish maydonlari, qayiqda dam olish uchun sun’iy ko‘l, attraksionlar sektori, kichikroq hayvonot bog‘i va boshqa ko‘ngilochar komplekslar bor. 1981 yili Parijda gullar xalqaro festivali munosabati bilan floral bog‘ida “Gullar vodiysi” gullar ekspozitsiyasi yaratildi. Unda mavsumiy gullash ekspozitsion uchastkasi

⁴⁴Николаевская З.А. Садово-парковый ландшафт. М.,1989, 260 bet.

⁴⁵ Хромов Ю.Б. Планировка и оборудование садов и парков. Л.,1974, 54 bet.

joylashtirildi. Beshta suv havzasida joylashgan “Suv florasi”ni tomosha qilish uchun maxsus “O‘rmon va dala gullari” yog‘och platformasi qurildi. Zamonaviy landshaft arxitekturasi ko‘rgazmasi 1981 yili Kasselda (Germaniya) ochildi. Unda bog‘-park san’atining an’anaviy usullari, gul kompozitsiyalari namoyish qilindi.⁴⁶

Ko‘ngilochish va attraksion bog‘lari. Xorijdagi Belgiya, Shvetsiya, Norvegiya, Daniya, Vengriya, AQSH, Yaponiya va Lotin Amerikasi davlatlarida “Oymomo bog‘” ko‘ngilochish va attraksionga ixtisoslashgan bog‘lar keng tarqaldi. Landshaft arxitektorlari V.Shellom va X.Kouzer loyihasi asosida, butun dunyoga mashhur multiplikatsiya ustasi Uolt Disney eskiziga ko‘ra Los-Anjeles yaqinida yaratilgan “Disneylend” ana shunday ajoyib bog‘lardan biri hisoblanadi. O‘qli kompozitsiya “Disneylend” rejasi asosiga qo‘yildi. Bosh kirish joyda bog‘ bo‘ylab o‘tuvchi bir relsli yo‘lning yo‘lovchilar o‘tqaziladigan stansiya joylashgan. Kirish joyining o‘qida uzviy ravishda “O‘tmish mamlakatlari” kompleksi tashkil qilinadi, unda 1890 yilgi Amerika shahrining bosh maydoni va savdo ko‘chasi ifodalanadi. Bosh maydonda nasosiy ko‘cha bo‘ylab aylana maydongacha vagonchada sayr qilish mumkin, unga 3 tomondan “Fantaziya mamlakatlari”, “Sarguzashtlar mamlakatlari” va “Kelajak mamlakati” kompleksi tutashib turadi. Asosiy kirish joyi o‘qi oxirida joylashgan uyqudagi go‘zal qasri orqasida attraksion komplekslari, “Qaroqchilar kemasidagi” restoran joylashgan. “Disneylend”ning sharqiy qismini AQSH fan va texnikasi yutuqlarini namoyish etish uchun ko‘rgazma pavilyonlari va ochiq maydonlar bilan “Kelajak mamlakati” egallagan. Agar “Kelajak mamlakati”da inshootlar, yo‘llar, maydonlar ko‘p bo‘lsa, AQSH tarixi sahifalarini va tropik “Sarguzashtlar mamlakati”ni eslatuvchi “Chegara mamlakati” bo‘lgan bog‘ning g‘arbiy zonasi sun’iy ko‘l va tepaliklar tizimi bilan landshaft bog‘ini eslatadi. Kanadadagi Toronto shahri markazida 1971 yili umumshahar markaz zonasiga kiruvchi tomosha ko‘ngilochar bog‘i yaratildi. Bosh inshootlar va komplekslarni Ontario ko‘li ustida joylashgan orollar va sun’iy

⁴⁶ Николаевская З.А. Садово-парковый ландшафт. М.,1989, 261 bet.

platformalarga eng muhim inshootlar va komplekslarni joylashtirilishi 43 ga maydonli bog‘ning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib qoldi. Qirg‘oqda faqat kirishlar, avtoturar joy, kassalar singari xizmat ko‘rsatuvchi inshootlari joylashgan. Ko‘p yarusli platformalarda joylashgan ko‘rgazma kompleksi gidropark kompozitsiyasi markazi hisoblanadi. Bu platformalar qirg‘oq va boshqa oroldagi inshootlar bilan ko‘priklar va yopiq galereyalar bilan bog‘langan. 300 kemaga mo‘ljallangan sayr porti, 8 ming o‘rinli ochiq amfiteatr, attraksionlar o‘yin maydonlari va kafe bog‘ ansambliga kiradi.

Osoyishta dam olish, sayr qilish, ilmiy bilish va tabiatga ixtisoslashgan bog‘lar. Osoyishta dam olish bog‘lari. Budapeshtdagi Yubileyniy bog‘i va Berlindagi “Fridrixsxayn” qayta ta‘mirlangan bog‘ osoyishta dam olish va sayr qilish bog‘lari hisoblanadi. Arxitektorlar V. Buvatiyanko va Z. Krishana loyihasi bo‘yicha yaratilgan Yubileyniy bog‘i Gellertog‘iga qarab ayvonlari bilan ko‘tarilib boradi. Bu bog‘da osoyishta dam olish uchun rangli plitalar qoplangan maydonlar va bir yillik gullardan iborat “modul” bog‘li kuzatish ayvonlari ko‘pchilikni tashkil etadi. Olti qirrali kvadrat, to‘rt burchak bog‘lar “moduli” kompozitsiyasiga bezakdor suv havzalari, haykallar guruhi, ayvonlar va pergollar kiritilgan. Ayvonlar, maydonlar, tabiiy toshdan terilgan rangdor ilon izi devorlar relyeflar, yakka daraxtlar, yashil tepaliklar bilan nihoyatda uyg‘unlashgan. Arxitektor YE. Shtefke ishlab chiqqan 41,7 ga maydonli “Fridrixsxayn” bog‘ining qayta ta‘mirlash loyihasida osoyishta dam olish uchun sayr yo‘llari va maydonlar, bayram tadbirlari o‘tkaziladigan joylar, bog‘-park san‘ati ko‘rgazmasi komplekslari, erkin o‘yinlar uchun kichikroq maydonlar tizimini rivojlantirish ko‘zda tutilgan. Ilon izi yo‘lli va tepalik ustidagi kuzatish maydoni bo‘lgan sun‘iy tepalik bog‘ kompozitsiyasi markazi hisoblanadi. Shimoldan tepalikka bog‘ni bosh hiyoboni aylanib o‘tadi. O‘yin va dam olish sektorlari, gul bog‘lari, ko‘rgazma komplekslari unga tutashib turadi.

Hayvonot bog‘lari. Arxitektor X. Graffuner loyihasiga ko‘ra 1955 yili to‘la qayta qurilgan Berlindagi hayvonot bog‘i e‘tibor tortadi. 160 ga maydonga ega

boʻlgan hayvonot bogʻi kompozitsiyasi XVII asr oxiri XVIII asr boshlarida qurilgan saroyning tarixiy qismi va bogʻning asosiy ekspozitsiyalari va jonivorlarni namoyish qilish uchastkasi joylashgan chiroyli landshaft bilan kontrastda qurilgan. Hayvonot bogʻining shimoliy va gʻarbiy zonalarida xizmat koʻrsatish komplekslari, restoranlar, kafelar, axborot xizmati, koʻrgazma pavilyonlari va muzeyzallari joylashgan. Bogʻning markaziy zonasi oʻtlogʻida tashrif buyuruvchilarga bizonlar, flamingo, tuyalar, antilopalar, lamalar, kengurular koʻrsatiladi. Chiroyli suv havzalari va yashil devorlar ekspozitsiyalar orasidagi toʻsiq vazifasini bajaradi. Inshootlarning barcha asosiy komplekslari bogʻning ekzotik janubiy-gʻarbiy qismida guruhlashtirilgan, bu yerda Afrika choʻllari va tropiklar mikrolandshafti va janubiy sektorda okeanarium va ayiqlarni koʻrsatish uchun pavilyon yaratilgan. Berlindagi hayvonot bogʻi tarixiy bogʻni ilmiy bilish bogʻiga oʻzgartirishga misol boʻladi, bu yerda tabiatda dam olish va ilmiy tadqiqot markazi, madaniyat muassasalari va tomosha komplekslari uygʻunlashib ketgan. 1971 yili madaniyat, dam olish va sport MNIIP va “Mosproyekt-3” jamoasi tomonidan yangi Moskva hayvonot bogʻi-metodik markazining loyihasi ishlab chiqildi. 150 ga maydonga ega boʻlgan hayvonot bogʻi 2500 turdagi va 12500 navdagi jonivorlarni boqish va namoyish etishga moʻljallangan. Hayvonot bogʻi ekspozitsiya, tashrif buyuruvchilarga xizmat qilish, ilmiy-tadqiqot, veterinariya va xoʻjalik singari 4 zonaga ajratilgan. 85 ga maydonga ega va tabiiy landshaft saqlab qolingan ekspozitsiya zonasida tashrif buyuruvchilar uchun bir necha marshrutlar yaratish koʻzda tutilgan. Birinchi marshrut “kichik halqa” 1,5-2 soat davomida yer yuzidagi jonivorlarning asosiy turi va ekzotariumdagi ayrim ekzotik eksponatlar, “Tungi olam”da tropik qushlar bilan tanishtirishni koʻzda tutadi. Ikkinchi marshrut “katta halqa” asta yuradigan poyezdda ekspozitsiyalarni tomosha qildirishni koʻzda tutadi. Bularan tashqari ekologik mavzuda “Rus panoramasi “Togʻ panoramasi”, “Shimoliy olam”, zoogeografik mavzuda Yevropa, Afrika va Avstraliya hayvonot olamini tomosha qildirish yoʻnalishlari belgilangan. Shveysariyaning Rappersvile shahridagi ixtisoslashtirilgan bolalar hayvonot bogʻida (yaratuvchi arxitektori V.Beles) jonivorlarni bolalarga tabiiy sharoitlarda

namoyish etish koʻzda tutilgan, bu yerda anʼanaviy toʻsiqlar va qafaslar yoʻq. Hayvonot bogʻi suvi haydalgan botqoqlikda joylashgan, temir betondan oʻziga binolar, bolalar oʻynashi uchun haykallar qurilgan. Hayvonot bogʻi xududida Yevropada tarqalmagan poni, echki, shuningdek ekzotik jonivorlar obezyana, zebra, tuya kabilarni namoyish etish zonasi joylashtirilgan. Hayvonot bogʻida koʻplab qushlar va maxsus kabutar xona mavjud. Baland oʻsimliklar va daraxtlar bilan oʻralgan chiroyli joylarda restoran, ochiq teatr, ekspozitsiya maydonlari boʻlgan pavilyonlar, xizmat pavilyonlari joylashgan.

Tabiat bogʻlari. Litvaning Skoudas tumanida 70-yillarda noyob toshlardan iborat bogʻ-muzey yaratilgan (avtorlar R. Va A.Kishkaslar). 10 ga maydondagi bogʻ Litva xududida tarqalgan 103 erratik katta toshlar koʻrinishidagi petrafik uchastka; qabr toshlar va ilohiy toshlardan iborat “Arxeologiyada toshlar” kompleksi; landshaft arxitekturasida (zinapoya, tayanch devorlar, yoʻl qoplamasi va boshqalar) toshlardan foydalanilgan ekspozitsiyali dam olish zonasi; eski suv tegirmonida toshlarning kameral ekspozitsiyasi joylashgan zonalar alohida koʻrsatilgan. Urbanlashuv, shahar aholisini tabiatda dam olishga intilishi, flora, fauna va chiroyli manzaralarni anglashga boʻlgan qiziqish jarayoni qimmatli landshaftlarni saqlab qolish zaruratini paydo qildi. Angliya, Gollandiya, Polsha, Germaniya kabi mamlakatlardagi bunday bogʻlar xududiy shahar rekreatsion tizimiga kiritildi. “Kampinos” milliy bogʻi Varshavaning shahar tumanlari bilan chegaradosh boʻlgan tabiiy bogʻ-muzey hisoblanadi. 40 ming ga maydondagi Milliy bogʻ 1959 yili shahar ostonasidagi katta rekreatsion zonada turizm, osoyishta dam olish va tabiatni anglash bogʻi sifatida yaratilgan edi. 22 mingga oʻrmon xududi bogʻ yaratish uchun asos boʻldi.

Yurtimiz va xorijiy tadqiqotchilar oʻtkazgan rekreatsion tizim rivoji tahlili ixtisoslashtirilgan bogʻlarning quyidagi toʻrt guruhini koʻrsatish imkonini berdi:

1. Barcha yosh guruhlaridagi koʻp sonli dam oluvchilar uchun moʻljallangan (suvda dam olish, lijada sayr qilish uchun bogʻlar).

2. Ma'lum ijtimoiy-demografik guruhlar (o'quvchilar uchun o'yin parklari, pensionerlar uchun osoyishta dam olish va sayr qilish, talabalar uchun sport bog'lari) dam olish turlari uchun.

3. Damolish, rivojlanish va ko'ngil ochish uchun noyob bog' turlari (sport namoyishi bog'lari, hayvonot bog'lari, attraksionlar bog'lari, botanika bog'lari, festival, etnografik va boshqa bog'lar).

4. Kasbiga qarab ayrimlar uchun dam olish turlariga (tennischilar, baliqchilar, yosh tabiatshunoslar va boshqalar).

Qadimgi rus bog'lari. Rossiyada bog'-park qurilishi qadimgi davrlardan boshlandi. Dastlabki bog'lar Nijniy Pridneprovye (mil.avv.Va.) va Kiyevda (XI a.) yaratildi.⁴⁷ XII asr ikkinchi yarmida Andrey Bogolyubskiy Vladimir shahrida dastlabki bog'lardan birini qurdi, u Vyaznik, Murom, Suzdal kabi shaharlardagi bog'lar uchun namuna vazifasini o'tadi. Kursk, Oryol, Tula shaharlaridagi bog'lar mashhur bo'lib ketdi.⁴⁸ XVI asrgacha asosan monastir bog'lari mavjud bo'ldi, ularda dastlab gullar o'stirildi, keyinchalik asosan mevali daraxtlar ekildi, masalan XV asrda Moskva daryosi yonidagi Kreml tepaligining janub tomonida tashkil qilingan mitropolit Aleksey bog'i, shuningdek Glebkov, Makarevskiy, Galtyayevskiy, Chichagov bog'lari va Neglinniy daryosi bo'yidagi bog'lar ma'lum.⁴⁹ Qadimgi Rus bog'lari odatda tepaliklarda joylashtirildi. Bog' jonli devor yoki yog'och to'siq bilan aylantirib to'sib qo'yildi. Bu yerda asosan mevali daraxtlar va sabzavotlar, ba'zan manzarali lipa, ryabina, leshina singari daraxtla o'tqazildi. Sug'orish, cho'milish, sirpanish va baliq boqish uchun hovuz bog'ning asosiy elementi hisoblandi. XVI-XVII asrlarda Rossiyada bog'-park qurilishi. Pyotr davridagi (XVI-XVII asrlar) bog'lar XVIII asrdagi doimiy bog' qurilishi asos bo'lib xizmat qildi. Moskvadagi boyarlar yerlari va saroy qishloqlari, Kalomenskoye, Krasnoye, Aleksandrova sloboda, Borisov shaharchasi kabilarda

⁴⁷ Жирнов А.Д. Искусство паркостроения. Львов, 1977, 53 bet.

⁴⁸ Стойчев Л. Парковое и ландшафтное искусство. София, 1962, 74 bet.

⁴⁹ O'sha joyda.

XVI asrda yoq bog‘lar bo‘lgan edi va rus bog‘dorchiligi markazi bo‘lib qoldi. XVI asrda Kreml tepaligining janubida ayvon bog‘lari vujudga keldi. Mitropolit Pavel qurdirgan “Krutitskiy meva bog‘lari” o‘zining gulzorlari va hovuzlari bilan mashhur bo‘lib ketdi. XVI asr saroy bog‘laridan Neglinnoy daryosi o‘ng qirg‘og‘idagi bog‘lar, Moskva daryosi bo‘yidagi Kreml va Yauza daryosi bo‘yidagi Voronsov maydonidagi bog‘lar mashhur bo‘lib ketdi.⁵⁰ Moskvaning Kreml bog‘laridan “muallaq” yoki “qizil” baland bog‘lar ma’lum. Ular xo‘jalik binolari ustiga (istiqomat uylarining ikkinchi qavati darajasida) o‘rnatildi. Kremlda bunday bog‘lar anchagina bo‘lgan. Ayniqsa Verxniy va Nijniy (1681 y.) “qizil” qirg‘oqdagi bog‘lar mashhur bo‘lgan. Verxniy “qizil” qirg‘oq bog‘i saroy korpusi peshtoqlariga joylashtirildi. Nijniy “qizil” qirg‘oq bog‘ida ham hovuz bo‘lgan, uni o‘rab turgan devorlar rang tasvir bilan bezatildi.⁵¹ XVI asr oxirida aptekar tomorqalari yoki aptekar bog‘lari paydo bo‘ldi, ularda turli dorivor o‘simliklar yetishtirildi. 1635 yili Pokrovskiy qishlog‘ida tashkil etilgan katta bog‘ va Moskvadagi labirint, hayvonlari, botanik bog‘i, uzumzori va ko‘plab suv havzalari bo‘lgan Izmaylov bog‘i juda mashhur bo‘lib ketdi. Shunday qilib XVI-XVII asrlar bog‘lariga quyidagilar xos xususiyat bo‘lgan:

- amaliy va estetik vazifalarning uyg‘unligi;
- doimiy elementlarni mavjudligi va ularni qo‘rg‘onda erkin joylashtirilishi;
- hududning tabiiy sharoitini hisobga olib qo‘rg‘onning barcha rejali qismlarini erkin joylashtirish;
- rejalashtirishda ansambl birligi va o‘q to‘xtamining mavjud emasligi;
- sun‘iy ekilgan bir xildagi daraxtlardan iborat daraxtzorlarni keng tarqalganligi;
- Kreml va ibodatxona komplekslarida baland bog‘lar qurilmasi.

Pyotr I hukmronligi davrida (1672-1725) rus bog‘ qurilishida doimiy klassik bog‘ ansambllarini yaratish tomonga qarab keskin burilish yasaldi.

⁵⁰ Рубцов Л. И. Садово-парковый ландшафт. Киев, 1956, 16 бет.

⁵¹ Стойчев Л. Парковое и ландшафтное искусство. София, 1962, 75 бет.

XVIII-XIX asr boshlari bog‘-park san‘ati. XVIII asr birinchi yarmida Peterburg va Moskvadagi Petrodvorets, Strelne, Sarskoye Selo (hozirgi Pushkin shahri), Peterburgdagi Oraniyenbaum, Moskva yonidagi Kuskovo va Arxangelsk shaharlarida ajoyib bog‘-park ansambllari yaratilgan. Peterburg va uning atrofidagi bog‘larni dastlab fransuz arxitektorlari J.B.Leblen (1679-1719), D.A.Trezini (1670-1734), N.Miketti (1739 y. vaf. etdi) kabilar yaratdi. Keyinchalik Rossiyada I.K.Korobov (1700-1747), P.M.Yeropkin (1690-1740), V.V.Rastrelli (1700-1771), A.V.Kvasov (1711-1772), S.I.Chevakinskiy (1713-1770) va boshqa rus bog‘ mutaxassislari paydo bo‘ldi.⁵²

Peterburg qurilishining birinchi bosqichida ko‘plab bog‘lar barpo etildi va ularning orasida Pyotr I saroyi bilan Yozgi bog‘ mashhur bo‘lgan edi.⁵³ Ularni D.Trezini, A.Shlyuter, N.Miketti, M.G.Zemsov (1688-1743) singari arxitektorlar qurdilar. Yozgibog‘ 1704-1725 yillari qurildi va 4 qismdan iborat bo‘ldi. Tashrif buyuruvchilar hozirgi paytda ko‘rayotgan yozgi bog‘ avvalgisidan tubdan farq qiladi. To‘g‘ri va nursimon yo yilib ketgan hiyobonlar saqlanib qolgan, ammo ularni qirqib tekislangan yashil devorlar o‘rab turardi. U yer-bu yerda yo‘laklar qalin yashil toshlar ostida berkinib qolardi. Bosketlarda

⁵² Жирнов А.Д. Искусство паркостроения. Львов, 1977, 60 бет.

⁵³ Горохов В.А., Лунц Л.Б. Парки мира. М., Стройиздат, 1985, 38 бет.

II.BOB Mamlakatimizda madaniyat va istirohat bog'larini bo'yicha olib borilayotgan islohotlar va aholining mazmunli dam olishlarini to'g'ri tashkil etish masalalari.

2.1.Mustaqillik yillarida yurtimizda madaniyat va istirohat bog'lariga qaratilgan e'tibor va tub islohatlar

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 29 dekabrda 322-sonli "2011-2015 yillarda madaniyat va istirohat bog'larining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorning mazmun-mohiyati. O'zbekiston hududi qulay tabiiy sharoiti, go'zal manzarali joylari, mevali va manzarali bog'-rog'lari bilan dunyoga mashhur. Juda qadimdan bu o'lkada bog' barpo etish odat tusiga aylangan. Xalqimizning «Yaxshidan bog' qolar» degan hikmatli so'zi bor. Buning ma'nosi juda chuqur. Birni kessang, o'nni ek degan naql ham aynan daraxt bilan bog'liq. Shundan kelib chiqib xalqimizni bog'lar bunyodkori, bog'boni desak bo'ladi. Dam olib hordiq chiqarishning eng samarali yo'li ham bog'lar, parklar bilan chambarchas bog'liq. Madaniy-ma'rifiy maskan sifatida madaniyat va istirohat bog'larining faoliyati aholining dam olib hordiq chiqarishlari uchun eng qulaydir. Chunki bevosita tabiat qo'ynida tashkil etilgan bunday bog'lar juda ko'p vazifalarni o'z zimmasiga oladi. Madaniy-ma'rifiy tadbirlar, ijodkorlik, amaliy san'at bilan bog'liq, sport bilan bog'liq tadbirlarni hordiq soatlarida tashkil etish uning keng imkoniyatlaridan kelib chiqadi. Bundan tashqari ommaviy bayram tadbirlari, sayillar, festivallar, do'stlik kechalarining parklarda tashkil etilishi juda katta samara beradi. Qadimda bog'lar odamlar yashab turgan joylardan chetroqda, katta sayhonlik, qiradirlarda maxsus tashkil etilgan bo'lsa, hozirda katta shaharlar ichida madaniyat va istirohat bog'larining faoliyat yurgizayotganini ko'ramiz. Bu bog'larning aynan aholi turar joylariga yaqin bo'lishi ularning dam olishlari uchun imkoniyatdir. Ushbu qaror madaniyat va istirohat bog'larining moddiy texnik bazasini mustahkamlash va ularning

faoliyatini yanada takomillashtirish masalalarini samarali xal etish muxim xuquqiy xujjat sanaladi. Qaror mazmun-moxiyatiga e'tibor bersak quyidagilar asosiy vazifa etib belgilandi. Jumladan;

- ko'rkam joylarda joylashtirish, manzarali daraxtlar va har xil gullar ekish orqali bog'ning kamida 50 foiz umumiy maydoni sathida ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish;
- attraksionlar va ko'ngilochar o'yinlar qurilmalarining ixcham, qulay va zamonaviy turlarini sanitariya va yong'in xavfsizligi qoidalariga hamda jamoat tartibi talablariga rioya qilgan holda o'rnatish;
- aholi, ayniqsa bolalar hamda o'smir yoshlarning madaniy dam olishi uchun qulay shart-sharoit yaratish maqsadida bolalarning mo'jaz sport maydonchalari, attraksionlar, suv havzalari, shuningdek raqs va ko'chma sirk uchun mo'ljallangan maydonchalar, amfiteatr, shinam o'rindiqlar hamda savdo va umumiy ovqatlanish shoxobchalari barpo etish.

Madaniyat va istirohat bog'lari hududida namunaviy loyihalar talablariga rioya etilgan holda, madaniy va hordiq chiqarish obyektlarini joylashtirish yuzasidan tuman (shahar) hokimlarining shaxsan javobgarligi belgilab qo'yilsin.

- Dasturni amalga oshirish bo'yicha asosiy ijrochilar etib Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari belgilansin hamda ularning zimmasiga quyidagi vazifalar yuklansin:
- madaniyat va istirohat bog'lari mol-mulkini to'liq xatlovdan o'tkazish, mavjud bino va inshootlar, attraksionlar va boshqa turdagi vositalardan samarali va maqsadli foydalanish bo'yicha zarur choralar ko'rish hamda ularning asossiz hisobdan chiqarilishiga yo'l qo'yimaslik;
- yangi madaniyat va istirohat bog'larini tashkil etish, mavjudlarini kapital rekonstruksiya qilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda zamonaviy attraksionlar bilan jihozlash bo'yicha manzilli hududiy dasturlarni uch oy muddatda ishlab

chiqish va tasdiqlash hamda har bir madaniyat va istirohat bog‘i bo‘yicha texnik-iqtisodiy asosnomani tayyorlash;

- madaniyat va istirohat bog‘larining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bilan bog‘liq amaliy ishlarni moliyaviy ta‘minlashda tadbirkorlik imkoniyatlaridan keng foydalanish, bunda bog‘ hududidagi yerlarni (namunaviy loyihada ko‘zda tutilgan taqsimotga rioya etgan holda) attraksionlar, savdo va umumiy ovqatlanish shoxobchalari qurish uchun tanlov savdosi asosida tadbirkorlarga ijaraga berish;
- Dasturni amalga oshirish uchun mahalliy byudjet daromadlarining oshirib bajarilgan qismini hamda hokimliklarning byudjetdan tashqari va homiylik, investorlar mablag‘larini jalb qilish va maqsadli yo‘naltirish.

- madaniyat va istirohat bog‘lari tuman (shahar) hokimliklari muassisligida davlat korxonasi shaklida tashkil etiladi va faoliyat ko‘rsatadi;

madaniyat va istirohat bog‘larining faoliyatini ta‘minlash bo‘yicha xarajatlar ularning o‘z daromadlari, korxonalar va tashkilotlar hamda jismoniy shaxslarning homiylik mablag‘lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalardan tushgan daromadlar hisobidan amalga oshiriladi;

- zarur hollarda, madaniyat va istirohat bog‘larining ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirish hamda bog‘bonlarga ish haqi to‘lash bilan bog‘liq xarajatlari mahalliy byudjetlar parametrlarida obodonlashtirish xarajatlari uchun nazarda tutiladigan mablag‘lar doirasida moliyalashtirilishi mumkin.

2011-2015 yillarda madaniyat va istirohat bog‘larining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturining amalga oshirish mexnizimi.

Madaniyat va istirohat bog‘lari Vatanimizda an‘anaviy tabiiy-madaniy maskan sifatida azaldan mashhur bo‘lib kelgan. Hozir ham bu go‘zal maskanlar ko‘pchilikning sevimli madaniy dam oladigan joylari hisoblanadi.

Endilikda xalqimizning madaniy bog‘dorchilik an‘analari qayta tiklanmoqda. Madaniyat va istiroxat bog‘larida ajdodlarimiz tajribalari asosida gulzor, xiyobon, chorbog‘ yaratish an‘analaridan foydalanilmoqda. Respublikamizda nafaqat tarixda mashhur bo‘lgan bog‘lar, masalan, Samarqanddagi Amir Temur bog‘lari tiklanmoqda, shuningdek, Toshkentdagi Alisher Navoiy nomidagi milliy bog‘ kabi mashhur yangi bog‘lar barpo etilmokda. An‘anaviylik va zamonaviylikni uyg‘unlashtirgan yangi bog‘lar Namangan, Farg‘ona, Xorazm va boshqa viloyatlarda ham vujudga kelmoqda.

Respublikamizdagi 120 dan ortiq bog‘larning 3/4 qismi, ya‘ni 90 tasi Madaniyat vazirligi tizimida faoliyat ko‘rsatmokda.

Hurmatli birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov “Yuksak ma‘naviyat - yengilmas kuch” kitobida shunday ta‘kidlangan:

Biz odamlarning ma‘naviy tarbiyasini o‘ylab, tinchlik va xayrli ishlarni ko‘zlab harakat qilayotgan har bir kishini qo‘llab-quvvatlaymiz, ular bilan hamkorlik qilamiz.

Masalaning boshqa tomoni - ma‘rifat va madaniyatning moddiytexnik bazasini mustahkamlash. Insonning to‘laqonli hayoti uchun nihoyatda zarur bo‘lgan maktablar, kutubxonalar, teatr va boshqa madaniyat o‘choqlarini ko‘paytirish, ularning sharoitini yaxshilash.

Bog‘ – insonning tabiat bilan yaqin munosabatni o‘rnatishi, tabiiy sharoitda madaniy dam olishi va ruhiy zavq olishi uchun xizmat qiladigan madaniy-ma‘rifiy muassasa hisoblanadi. Ushbu tamoyildan kelib chiqqan holda bog‘ barpo etish juda buyuk savob ishlardan biri bo‘lib hisoblangan va qadimdan ajdodlarimiz tomonidan yurtimizning turli hududlarida bog‘lar yaratilgan. Buyuk bobomiz Amir Temur o‘z tuzuklarida “Xon bo‘lsang ham bog‘ yarat, gado bo‘lsang ham bog‘ yarat”,- deb bejiz yozib qoldirmagan. U o‘z so‘zlariga amal qilgan holda Samarqand shahri va uning atrofida 12 ta bog‘ning bunyod etilishiga boshchilik qilganligi to‘g‘risida tarixiy ma‘lumotlar mavjud. Yurtimizning Samarqand,

Buxoro, Xorazm, Andijon, Namangan, Farg‘ona va boshqa hududlari qadimdan o‘zining ajoyib bog‘-rog‘lari va oromgohlari bilan mashhur bo‘lgan. Bog‘larning barpo etilishida yurtimizdagi tabiiy sharoit ham muhim o‘rin tutadi. Ya‘ni, bahorning dastlabki kunlaridanoq ob-havoning isishi va to kech kuzgacha shunday holatning saqlanib qolishi aholining va xorijiy mehmonlarning tabiat bag‘rida yayrab xordiq chiqarishi uchun sharoit yaratilishini talab etgan. Yurtimiz bog‘larida xalq sayillari, ommaviy tomoshalar uyushtirilib, bu tadbirlar nomoddiy madaniy merosimizning ajoyib namunalari bo‘lgan dorbozlik, qo‘g‘irchoqbozlik, xalq o‘yinlari bilan boyitilgan, askiya kechalari, mushoiralar uyushtirilgan. Hozirda esa bog‘lar umumxalq bayramlarini nishonlash maskanlaridan hisoblanadi. “Barkamol avlod yili” munosabati bilan qabul qilingan Davlat dasturida yurtimizning har bir tuman va shaharida kamida bittadan zamonaviy madaniyat va istirohat bog‘ining faoliyat yuritishiga erishish, ularning barchasini zamonaviy attraksionlar va o‘yin qurilmalari bilan jihozlash orqali aholi, ayniqsa, yoshlarning madaniy dam olishlari uchun sharoit yaratish, ularni milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, bog‘larni zamonaviy talablarga javob beradigan, turli yosh va aholi guruhlarining dam olish maskaniga aylantirish asosiy maqsad etib belgilangan. Ushbu maqsadlarga erishishda madaniyat va istirohat bog‘larini zamonaviy attraksion va o‘yin qurilmalari bilan jihozlash, ularda zamonaviy ko‘ngilochar obyektlarni barpo etish qatorida istirohat bog‘lari bilan bog‘liq azaliy an‘analarimizni ham saqlab qolish va ulardan yoshlar tarbiyasida unumli foydalanishni tashkil etish ham zarur.

Dasturdan ko‘zlangan maqsadlarni amalga oshirish uchun: madaniyat va istirohat bog‘lari bilan bog‘liq huquqiy-normativ bazani takomillashtirish, bog‘lar faoliyatini muvofiqlashtirish tizimini yaratish; madaniyat va istirohat bog‘larida kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni hisobga olgan holda kadrlar tayyorlanishini maqsadli tashkil etish, u yerda ishlayotgan xodimlarning malakasini oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish; madaniyat va istirohat bog‘larida

o‘tkaziladigan madaniy tadbirlar ko‘lamini oshirish, yangi shakl va uslubdagi madaniy va sport tadbirlarining o‘tkazilishiga erishish;

madaniyat va istirohat bog‘larida aholining barcha qatlamlari uchun, ayniqsa, oilaviy dam olishga xizmat qiladigan sharoit yaratish, xususan:

sokin hududda aholining tabiat qo‘ynida xotirjam dam olishini tashkil

etish, bolalarda tabiatni asrash tuyg‘usini shakllantirish; bolalar maydonchalarida kichik yoshdagi bolalarning zavqli o‘yinlar

bilan mashg‘ul bo‘lishiga sharoit yaratish, ko‘rgazma zallarida turli tasviriy san‘at va hunarmandchilik mahsulotlarining ko‘rgazmalarini o‘tkazish orqali yoshlarda estetik didni tarbiyalash; estrada maydonlari va amfiteatrlarda mumtoz, estrada, folklor

yo‘nalishlaridagi konsert dasturlarining namoyishini tashkil etish, aholiga ko‘rsatiladigan servis xizmatining turlarini ko‘paytirish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish.

Ushbu vazifalarning to‘liq amalga oshirilishi uchun madaniyat va istirohat bog‘lari hududi va ularda joylashtiriladigan obyektlarga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish va shu asosda uchta tipdagi madaniyat va istirohat bog‘larining namunaviy loyihasini ishlab chiqish, namunaviy loyihalarning joylardagi mavjud bog‘larni rekonstruksiya qilish loyihalariga moslashtirish lozim bo‘ladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi markaziy madaniyat va istirohat bog‘lari - birinchi tipda, yirik (aholi soni va bog‘ maydoni e‘tiborga olinadi) shahar va tumanlardagi madaniyat va istirohat bog‘lari – ikkinchi tipda, hududlardagi kichik hajmdagi bog‘lar uchinchi tipda bo‘lishi hisobga olinib, uchta tipdagi madaniyat va istirohat bog‘larining namunaviy loyihasini ya’nada kengroq ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Har bitta madaniyat va istirohat bog‘ining maydoni ikki hudud: aholining tinch tabiat qo‘ynida dam olishi

va hordiq chiqarishiga xizmat qiluvchi sokin hudud; aholining faol dam olishi uchun xizmat qiladigan gavjum hududga ajratilishi tamoyillariga amal qilish zarur. Shu bilan bir qatorda: sokin hudud egallagan maydonning eng kamida 65 foizi daraxtzor, harakatlanish yo'laklari, hordiq uchun o'rindiqlar, shuningdek obodonlashtirilgan yerlarga to'g'ri kelishi, qolgan 35 foiz maydonga boshqa obyektlarni joylashtirish maqsadga muvofiq. Madaniyat va istirohat bog'lariga qo'yilayotgan talablardan kelib chiqqan holda aholining mazmunli dam olishini tashkil etish uchun juda kam bog'lardagina faoliyat ko'rsatayotgan ko'ngilochar maskanlarning yangi turlarini barpo etish vazifasini ham amalga oshirish zarur. Yozgi estrada maydonchalari, sun'iy suv havzalari, ko'chma sirk tomoshalarini namoyish etish maydonchalari, bolalar shaharchalari, raqs maydonchalari, xalq amaliy san'ati namunalarinining namoyishi va savdosi uchun xizmat qiladigan obyektlar shular jumlasidandir.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarning amalga oshirilishi natijasida: Respublikadagi 148 ta madaniyat va istirohat bog'larining sonini 77 taga ko'paytirib, ularning soni 225 taga yetkazilishi ko'zda tutilgan bo'lib

2015 yilgacha muddatda barcha madaniyat va istirohat bog'lari zamonaviy ko'rinishga keltirilib, attraksionlar va kichik o'yin qurilmalari bilan jihozlanishi ta'kidlangan. Madaniyat va istirohat bog'larining hududiga va ularda bo'lishi lozim bo'lgan obyektlarning tarkibiga qo'yiladigan talablar asosida barcha bog'lar tartibga keltirildi; madaniyat va istirohat bog'larining yuridik maqomi, ularning mulkchilik shakli, boshqaruv va boshqa tashkiliy jihatlarini tartibga soluvchi meyoriy hujjatlar takomillashtirildi; madaniyat va istirohat bog'lari malakali kadrlar bilan ta'minlanadi; bog'larda tashkil etiladigan madaniy-ommaviy, sport tadbirlarining ko'lami va sifat darajasi ortadi; bog'larga tashrif buyuruvchilarning soni ortadi; madaniyat va istirohat bog'lari yagona andoza asosida pasportlashtiriladi, har bitta bog'ning faoliyatini o'rganish imkoniyatini yaratish uchun ularga guvohnomalar beriladi, buning natijasida barcha bog'larning

tayyorgarlik darajasi nazorat ostiga olinadi; servis xizmatining yangi turlari tashkil etildi; yangi ish o‘rinlari ochildi; voyaga yetmaganlarning bo‘sh vaqtlari mazmunli o‘tkazilishiga erishilmoqda. Madaniyat va istirohat bog‘larining tashkiliy-huquqiy shakli, qaysi tashkilot yoki muassasaga bo‘ysunishidan qat’iy nazar, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish, uslubiy va amaliy yordamni tashkil etish, mavjud meyoriy hujjatlarni takomillashtirib borish vazifasi O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi zimmasiga yuklandi. Shuningdek, bog‘larda olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy, madaniyommaviy tadbirlarning samaradorligi oshirish, bog‘larning ushbu yo‘nalishlardagi faoliyatini yo‘naltirish maqsadida Vazirlik qoshida Respublika madaniyat va istirohat bog‘lari direktorlarining jamoatchilik Kengashi faoliyatini yo‘lga qo‘yish, kelajakda ushbu Kengash faoliyatini yanada takomillashtirish orqali Madaniyat va istirohat bog‘lari uyushmasini tashkil etildi. Dasturni amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining byudjetdan tashqari mablag‘lari, investorlar hamda homiylar mablag‘lari hisobiga amalga oshirilishi belgilangan. Shu maqsadda Dasturda belgilangan vazifalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy manbalarni aniqlash va uzluksiz moliyalashtirishni tashkil etish ishlari mahalliy hokimliklar zimmasiga yuklatilgan. Madaniyat va istirohat bog‘larida barcha tegishli sharoitlar yaratilishi natijasida o‘zini o‘zi mablag‘ bilan ta‘minlash imkoniyati yuzaga keladi va bu o‘z navbatida qo‘shimcha mablag‘larsiz faoliyat ko‘rsatish, zarur hollarda esa o‘z faoliyatini kengaytirish imkoniyatini keltirib chiqaradi. Aholiga ko‘rsatiladigan servis xizmati turlarini kengaytirish, ularning sifatini oshirish orqali bog‘larga keluvchilarning soni muntazam ortib borishiga erishildi. Prezidentimizning 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi farmonida Xususan, madaniyat va san‘at sohasiga ham juda katta e‘tibor qaratilayapti. Madaniyat va san‘at sohasini rivojlantirish uchun prezidentimiz 15 ga yaqin qaror va farmonlar qabul qildilar. Bu qarorlarda madaniyatva istirohat bog‘lariga ham sezilarli darajada e‘tibor qaratilgan bo‘lib.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-fevraldagi 4956-sonli farmoni "Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida."⁵⁴ Prezidentimizning bu farmoni asosida madaniyat va sport sohasidagi boshqaruv tizimini takomillashtirish, mazkur sohada O'zbekiston xalqining boy va o'ziga xos madaniyati, san'ati va ijodiyotini yanada rivojlantirishni ta'minlashga yo'naltirilgan davlat siyosatini amalga oshirish samaradorligini tubdan yuksaltirish, aholi keng qatlamlari orasida ma'naviy axloqiy kamolot va sog'lom turmush tarziga intilishni kuchaytirish maqsadida: O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tugatilib, uning o'rniga O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-fevraldagi 2778-sonli qarori "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida."⁵⁵ gi qarorga binoan Madaniyat va istirohat bog'lari; Madaniyat vazirligi birlashtirildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 141-sonli qarori "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi to'g'risidagi hamda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"⁵⁶. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-may 3022-sonli qarori "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida."⁵⁷

Qarorda 2017-2021-yillarda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqilgan. Madaniyat va san'at muassasalari faoliyatini tashkil etish va samaradorligini oshirishga katta e'tibor berilgan. Madaniyat va san'at muassasalari, teatrlar, muzeylar, badiiy jamoalar, madaniyat va aholi dam olish maskanlari,

⁵⁴ Harakatlar strategiyasi va ma'naviy yuksalish. Azamat Haydarov. G'afur Gulom nashriyot. Toshkent-2018. 46-53-betlar

⁵⁵ Harakatlar strategiyasi va ma'naviy yuksalish. Azamat Haydarov. G'afur Gulom nashriyot. Toshkent-2018. 62-65-betlar

⁵⁶ Harakatlar strategiyasi va ma'naviy yuksalish. Azamat Haydarov. G'afur Gulom nashriyot. Toshkent-2018. 76-bet

⁵⁷ Harakatlar strategiyasi va ma'naviy yuksalish. Azamat Haydarov. G'afur Gulom nashriyot. Toshkent-2018. 99-bet

madaniyat va istirohat bog'lari moddiy texnik bazasini taminlash ishlab chiqilgan. Madaniyat va san'at sohasida ishlaydigan xodimlarni malakasini oshirishga ham e'tibor qaratilgan. Madaniyat va san'at sohasida o'qiydigan yoshlarga ham turli xil davlat grantlari ishlab chiqilgan.

Bundan ko'zlangan maqsad yoshlarni bilimli va rivojlangan davlatlar yoshlari qatoriga qo'shish hamda ulardan qolishmaslik ko'zda tutilgan. Hattoki, qaror doirasida hududlarda madaniyat sohaida faoliyat yuritayotgan yuqori malakali xodimlar, jumladan, iqtidorli yosh mutaxassislar uchun munosib turar joy sharoitlarini yaratish maqsadida hududlar markazlarida imtiyozli ipoteka kreditlari asosida ko'p qavatli xizmat uylarini qurish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18- oktabrdagi 3337-sonli qarori "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash to'g'risida"⁵⁸

Ushbu qaror O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, uning samarali faoliyat ko'rsatishni ta'minlash, madaniyat va san'at sohasi vakillari uchun har tomonlama qulay sharoit yaratish maqsadida qabul qilingan. Vazirlikning moddiy-texnik bazasi mustahkam bo'lsa, bajariladigan ishlar ham samarali bo'lishi takidlangan.

⁵⁸ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 18.10.2017-yil, 07/17/3337/0135-son

2.2.Madaniyat va istirohat bog‘larida ommaviy-madaniy tadbirlarni tashkil etish uslublari

Istiqlol iqtisodiy-ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy, madaniy yuksalish yo‘lida har tomonlama mukammal o‘ylangan islohotlarni amalga oshirishda keng imkoniyatlar berdi. Bu islohotlar ichida inson kamoloti va uning ma’naviy-ma’rifiy tarbiyasi alohida o‘rin tutadi. San’at insonlarni go‘zalikka chorlovchi, birlashtiruvchi vositadir. San’at shunday bir ijtimoiylikki har qanday davrda ham uning bosh maqsadi inson tarbiyasidir. “Bugun, Vatanimiz, yurtimiz XXI asrga qadam qo‘yib, o‘zining buyuk kelajagi sari intilayotgan, bu yoldagi barcha harakatlarmiz iymon-ye’tiqod tuyg‘usi bilan yog‘ilib, kuchayib borayotgan bir paytda, o‘z tarixiy ildizlarimizni, shu jumladan, san’atimiz, milliy teatrimiz tarixini chuqur anglash, undan saboq olish haqida gapirishimiz har jihatdan o‘rinli bo‘ladi, deb o‘ylayman”⁵⁹, deb ta’kidlagan birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov. hozirgi kunda san’at va madaniyatga katta e’tibor berilmoqda. Sahna shunday bir minbarki, undan turib ichingdagi darding, quvonchu izhorlaring va boshqa his-tuyg‘ularingni bemalol aytishing mumkin. Teatr san’ati, musiqa, raqs va boshqa san’at turlari orqali ham insonlarni tarbiyalash, ularga estetik zavq bag‘ishlash, ezgulikka undash kabi maqsadlar qo‘yilganki, uni amalga oshirish uchun esa badiiy jamoa rahbari turli ifodaviy va ta’sirchan vositalardan foydalanishiga to‘g‘ri keladi. Demak, ifodaviy va ta’sirchan vositalar sahna asarining yuzaga chiqishidagi barcha faoliyatlarda qo‘llanishi va kuzatilishi mumkin. Ayniqsa, bu ifodani ommaviy bayram va tomoshalarda yaqqol ko‘rish mumkin. Keyingi yillarda, aniqrog‘i, yurtimiz mustaqillikka erishgach, bayramlarni tashkil etishga bo‘lgan e’tiborning kuchayganligini sezishimiz mumkin.

“Ma’naviy - ma’rifiy tadbir” atamasi "ma’naviy - ma’rifiy tadbirlar", "madaniy tadbirlar", "badiiy - ommaviy tadbirlar", "ommaviy tadbirlar", "badiiy tadbirlar" so‘z birikmalarini ham o‘z mazmunida ifoda etadi.

⁵⁹ Karimov I.A. "Milliy teatrimiz - iftixorimiz". Toshkent shahrida Akademik Drama teatri yangi binosining ochilish marosimida so‘zlagan nutqi. 2001 yil 30 avgust.

Professor U.H.Qoraboyev o'zining "Madaniy tadbirlar" nomli kitobida kuyidagicha fikr bildiradi: "Tadbirlarda keng qamrovli ishlar olib boriladi va ular kishilarning ishdan bo'sh vaqtida kerakli axborotlar berish, badiiy - estetik zavqlantirish, madaniy-ijodiy ishga jalb kilish hamda ularning mazmunli hordiq chiqarishlari uchun xizmat qiladi. Shuning uchun ham unga kengroq tushuncha va atama zarur bo'lmoqda. Ularni keng qamrovli "madaniy tadbirlar" deb atasa yaxshi bo'ladi. Kezi kelganda shuni aytish lozimki, "ommaviy tadbirlar", "badiiy tadbirlar" atamalariga ham murojaat kilish mumkin"⁶⁰ R.SH.Rustamovanning «Talaba- yoshlarni ma'naviy - axlokiy tarbiyalashda madaniy - ma'rifiy tadbirlar samaradorligini oshirish omillari» mavzusidagi dissertatsiyasida esa «madaniy - ma'rifiy tadbirlar» atamasi qo'llanilib, «Madaniy - ma'rifiy tadbirlar deganda aholini ma'naviy -axlokiy jihatdan tarbiyalash, ularning madaniy saviyasini oshirish, bilimni o'stirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bo'sh vaqtini, dam olishini ko'ngilli o'tkazish, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy extiyojlarini qondirishga xizmat kiluvchi tadbirlar tushuniladi»⁶¹ deb ta'rif beriladi.

Madaniyat va istirohat bog'larida ushbu tadbirlar shunchaki bo'sh vaqtni tashkil etish, mazmunli hordik chiqarish, kerakli axborot bilan ta'minlash bilangina cheklanib qolmasdan, o'quvchi yoshlarni ma'naviy - axloqiy ruhda tarbiyalash, ular ongida milliy g'oya va mafkurani shakllantirish, bilim berish orqali dunyoqarashni shakllantirishga qat'iy yo'naltirilgandir.

Ommaviy bayramlar madaniy tadbirlarning oliy ko'rinishi bo'lib, insoniyat tarixining rivojlanishi bilan takomillashib kelgan.

Insoniyat yaralibdiki, uning turmush tarzida bayramlar alohida ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda. Insoniyat hayotini bayramsiz, an'ana, marosim, urf-odatlarsiz

⁶⁰ .Qoraboyev U. Madaniy tadbirlar, (Madaniy xordik nazariyasi va amaliyoti fani bo'yicha o'kuv ko'llanma). -T.: Toshkent kartografiya fabrikasi, 2003. -123 6.

⁶¹ Bekmatov A., Rustamova R. Milliy g'oya targ'iboti va madaniy-ma'rifiy tadbirlar -T Ma'naviyat2008- 12 b.

tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bayramlar jamiyatning ma’naviy go‘zalligini, xalqning yashash tarzi, turmush sharoitini dunyoga ko‘z-ko‘z qiluvchi asosiy vositadir. Biror davlatda nishonlanayotgan milliy bayramlar yoki jahon miqyosidagi tadbirlarni kuzatar ekanmiz, o‘sha davlatning milliyligi, o‘ziga xos urf-odatlarini o‘rganamiz. Demakki, bayram hayotning eng nafis va nafosatli xislatlarini namoyish etuvchi ko‘zgudir. Bayram jamiyatning kechasi, buguni, ertani haqida dalolat beruvchi jonli manbadir. Sharqning buyuk olimi Mahmud Qoshg‘ariy “Bayram-xalqning shodlik va xursandchilik kunidir”⁶², degan edi. Biror-bir muhim ijtimoiy voqea, sanani ko‘pchilik bo‘lib, ko‘tarinki ruhda, xursandchilik bilan nishonlash bayram deb tushiniladi.

Abu Rayhon Beruniy bayramlarni hayotdagi “eng muhim kunlar”⁵ deb ularni quyidagi turlarga bo‘ladi:

1. dunyoviy bayramlar

2. diniy bayramlar

“Kimki Navro‘z kuni bayram qilib quvonsa, keyingi Navro‘zgacha xurram bo‘ladi va farog‘atda yashaydi”, deb ta’kidlaydi Umar Xayyom⁶³.

XX asrda bayramlar bilan ko‘pgina olimlar shug‘ullanishgan. Bayramlar mohiyatini to‘g‘ri anglash, tarixi va hozirgi kundagi hayotini tushunishda ayniqsa M.M.Baxtin tadqiqotlari muhim. “Bayram hamma vaqt dunyoni teran idrok etish mazmuniga ega bo‘lib kelgan. Ijtimoiy mehnat jarayonini tashkil etish va mukammallashtirishdagi “mashqlar”, “mehnat o‘yinlari”, mehnatdagi dam olish yoki nafasni rostdash hech qachon o‘z holicha bayram bo‘la olmaydi. Ularning bayram bo‘lishi uchun borliqning boshqa sohasi, ma’naviy-mafkuraviy sohasidan nimadir qo‘shilishi shart. Ular moddiy dunyo va zarur shart-sharoitlaridan emas,

⁶² Mahmud Qoshg‘ariy. “Devonu lug‘otit-turk”, 1 tom. – T.: “Fan”, 1963 yil, 447 bet.

⁶³ Umar Xayyom. Navro‘znoma. T., Mehnat, 1990, 12 bet.

inson hayotining buyuk maqsadlari dunyosidan, ya'ni ideallar dunyosidan da'vat va quvvat oladi"⁶⁴.

Bayramlar ham jamiyatdagi o'zgarishlarga qarab, ma'lum darajada o'zgarib boradi. Yangi bayramlar paydo bo'ladi. Lekin bu bilan bayram shodiyonasi, insonlar xursandchiligi o'zgarmaydi. Inson bayram kunlari o'z hayotidagi tashvishlarni unitib, yangi liboslar kiyishga, o'yin-kulgi bilan g'uborini yozishga harakat qiladi.

Shu soha olimlari XX asrdagi bayramlarga baho berar ekan, M.M.Baxtin konsepsiyasiga tayangan holda ish ko'radilar. "Bayram – bu ma'lum vaqtdagi ideal hayotdir" – deb ta'kidlaydi I.I.Mazayev⁶⁵.

"Bayram – har bir fuqaro va butun jamiyat hayotini aks ettiruvchi o'ziga xos ijtimoiy hodisadir" – deb ta'rif bergan D.M.Genkin bu fikrlarini yanada oydinlashtirib shunday deb yozadi, "Bayram – bu voqelik bilan san'atni uyg'unlashtiruvchi, u yoki bu real hayotiy voqeani badiiy bezab ko'rsatuvchi o'ziga xos antiqa hodisadir"⁶⁶.

"Bayram dunyo madaniyatida yig'ilgan eng qimmatli boyliklarni o'zida uyg'unlashtiradi"⁶⁷ – deb fikr yuritadi A.I.Arnoldov.

Bayramshunos olim filologiya fanlari doktori, professor U.Qoraboyev "O'zbekiston bayramlari" nomli kitobida va mazkur kitobning qayta ishlanmasi sifatida yaratgan "O'zbek xalqi bayramlari" kitobida o'zbek bayramlarining xususiyatlari haqida to'laqonli ta'rif bergan. O'zbek bayramlari mohiyatan boshqa xalqlar bayramlaridan farq qilmaydi, ular ham orzu, mehnat, kurash ifodasi, an'analar, go'zallik ko'zgusi, tinchlik, hamjihatlik, tenglik, hayotning davomi, muhim qismidir.

⁶⁴ Baxtin M.M. Literaturno-kriticheskiye stati. M., 1986, s.299.

⁶⁵ Mazayev A.I. Prazdnik kak sotsiolno-xudojestvennoye yavleniye. M., Nauka, 1978. s.172.

⁶⁶ Genkin D.M. Massoviye prazdniki. M., Prosvesheniye, 1975, s.44.

⁶⁷ O'sha joyda, 79 bet.

U.Qoraboyev xalq bayramlari mohiyatini belgilovchi bayramlarning xususiyatlaridan kelib chiqib, bayramning uchta asosiy xususiyatini belgilaydi:

Bayram holati (bayram kayfiyatining) paydo bo'lishi, bayramga bo'lgan ehtiyojning tug'ilishi;

Bayramona holat, kayfiyatning paydo bo'lishi – bu hali bayram degani emas. Shu kayfiyatni, shu holatni, intilishni ro'yobga chiqarish uchun bayramni tashkil etish kerak. Ommaning bayram ishtirokchisiga aylanishidir.

Bayram bu – teatrlashtirilgan namoyishlar, tomoshalar, konsertlar, ko'rik-tanlovlar bellashuvlar, ya'ni rang-barang ommaviy tadbirlar birligidir⁶⁸.

O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida bayramga qo'yidagicha ta'rif berilgan: - "Bayram (turkiycha – katta yig'in, to'y) – keng nishonlanadigan tantanalik kun. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot davomida kelib chiqishi, mazmuni, ijtimoiy hayotda qaror topishiga ko'ra an'anaviy, diniy, milliy va boshqa bayramlar vujudga keldi. Avloddan-avlodga meros tariqasida o'tib keladigan bayramlar an'anaviy bayramlar deyiladi. Masalan: Navro'z bayrami. An'anaviy bayramlar biror xalq yoki millatning ayni vaqtdagi ijtimoiy turmushi, hayot kechirish tarzi bilan bevosita bog'liq bo'lmaydi. Diniy bayramlarda har bir monetistik dinning aqidalarida belgilab qo'yilgan marosimlar nishonlanadi"⁶⁹.

Tadqiqotchi E.V.Sokolov bayramlarni barcha dam olish shakllari orasida eng afzali deb ko'rsatadi. Chunki bayram tadbirlarida dam olishning eng samarali shakllari mujassamlashadi⁷⁰. Tarbiya tizimida bayram o'ziga xos muhim va yirik tadbir sanaladi. Xalqning eng yaxshi an'analari, odatlari, ahloqiy qoidalarini o'zida mujassamlashtirishi, saqlashi va rivojlantirishi bilan yoshlar tarbiyasida ham bayramning ahamiyati katta. Tarix shuni isbotlaydiki, bayramlar ma'nosi, g'oyasi xalqning o'yi, dardi, orzu-umidlari asosida paydo bo'lgan va o'zgarib, rivojlanib

⁶⁸ Qoraboyev U.X. O'zbekiston bayramlari, 49-50 betlar.

⁶⁹ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 1 tom. T.O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. 584 bet.

⁷⁰ Sokolov E.V. Svobodnoye vremya i kultura dosuga. L., 1977, s.84-88..

borgan. Bayramlarning yana bir xususiyati ularning muayyan vaqt, maxsus sana bilan bog'liqligidir. Kishilarda bayram kayfiyati avvaldan belgilangan vaqt, sana, kun kelganida paydo bo'ladi. Masalan, qishning sovuq kunlaridan so'ng ob-havoning isishi, tevarak-atrofning ko'm-ko'k libosga o'ranishi, dov-daraxtlarning gullashi – bahor kelishi barcha kishilarga olam-olam quvonch shodlik olib keladi. Albatta, bu o'zgarishdan har kim o'zicha zavqlanadi. Ammo tabiat go'zalligi va bahor shodiyonasi hamma uchun umumiy bo'lganligi sababli odamlarda uni birgalikda nishonlash kayfiyati ham tug'iladi. Ana shu ehtiyojni qondirish uchun maxsus vaqt belgilanadi. Bu sanalarni belgilashda ming yilliklar tajribasidan kelib chiqiladi. Masalan, quyoshning hamal burjiga kirish vaqti "Navro'z" bayrami o'tkaziladigan vaqt sifatida belgilangan. Professor U.Qoraboyev "O'zbek xalqi bayramlari" kitobida quyidagi fikrni bildirgan – "Bayramning o'ziga xos xususiyati unda keng ommaning ishtirok etishidir. Bayram avvalo ko'pchilik uchun uyushtiriladi va u bevosita odamlarning ishtirokida o'tadi. Teatrlar, konsert zallari, televideniye ko'rsatuvlari, radio eshittirishlarida omma faqat tomoshabin, tinglovchi rolini bajarsa, bayramlarda odamlar faol ishtirokchi sifatida qatnashadi. Bayramlarda hamma o'z qobiliyatini namoyish qilishi mumkin. Kishilar bayram tadbirlarini ishtirokchi sifatida kuzatadi va bo'lgan voqelarga o'z munosabatini bildiradi. Bayramlarning o'ziga xos yana bir xususiyati ularning bir necha (kompleks) tadbirlar sintezidan tashkil topishidir. Har bir bayram ko'plab tadbirlar asosida uyushtiriladi. Bayramning tashkil qilinishi – uning mavzusi, g'oya, yonalishi maxsus shakl, tadbir va marosimlar orqali namoyon etishdir. Odatda har bir ommaviy (ayniqsa, ochiq joylardagi) bayramning ochilish marosim-tadbiri bo'ladi. Undan so'ng, bir joyda – bayram ko'rgazmalari, ko'rik-tanlovlari; ikkinchi joyda – dor o'yini, polvonlar chiqishlari; uchinchi joyda - askiya va qiziqchilar chiqishlari, qo'g'irchoq teatri tomoshalari; to'rtinchi joyda – badiiy havoskorlik jamoalari, folklor etnografik ansambllari konsertlari; beshinchi joyda – sport musobaqalari kabilar tashkil qilinadi. An'analar, marosimlar, teatrlashtirilgan konsert va tomoshalar, karnavallar, namoyishlar, xalq o'yinlari bayramlarning

asosiy tarkibiy qismi sanaladi. Ommaviy bayramlar shu kabi tadbirlar asosida o‘tkaziladi»⁷¹.

Bayram-o‘ziga xos, ko‘p tomonli ijtimoiy hodisa bo‘lib, har bir insonni, jamiyatning hayotini namoyon etadi. Uning barcha dunyo xalqlari orasida tarqalganligidan, bayramlarning inson va jamiyat uchun hech narsaga almashtirib bo‘lmaydigan bebaho boylik ekanligiga amin bo‘lamiz «Bayram jamiyat hayotining organik bo‘lagi bo‘lib, shu bilan bir qatorda, har bir insonning hayoti va faoliyatini tenglashtirib, omma erkin hayot faoliyatining markaziga aylanib, alohida olingan shaxsning emotsional tarangligini oluvchi razryad funksiyasini bajaradi»⁷² «Bayram» - turkcha so‘zdan olingan bo‘lib, to‘y, marosim, xursandchilik degan ma‘nolarni bildiradi. Bayram so‘zining turli talqinlari bor. Falsafiy ensiklopediyada berilgan «Bayram» - insonlar xursandchiligining yig‘indisi», - degan talqin eng to‘g‘risi deb hisoblanadi. Bayram ijtimoiy mahalliy hayotning eng muhim qismlaridan bo‘lib, shodiyona, xursandchilikni vujudga keltiradigan voqealarni nishonlaydi. O‘rta Osiyo xalqlari, jumladan, o‘zbek xalqining ham eng qadimgi davrlardan shakllana boshlagan asrlar bo‘yi avloddan-avlodga o‘tib kamol topib bebaho merosiga aylangan bayramlari ko‘p. Bu bayramlar eng qadimiy davrlarda xalq ommasi ehtiyoji bilan shakllana borgan, ijtimoiy zarurat asosida rivoj topgan va boshqa xalqlar tajribasi bilan boyib kelgan. O‘zbek xalqi bayramlarini davrlarga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Masalan: Ibtidoiy davrda vujudga kelgan bayram shakllari (bunga ovchilik o‘yinlari, zoofagik (ya’ni, totem hisoblangan ayiq, yovvoyi echki, sigir, bu esa ot kabilarga sig‘inish) bayramlar, mehnat o‘yinlari, orgaist bayramlari va boshqa bayramlarni kiritish mumkin). O‘rta Osiyo xalqlarining qadimiy (islomgacha bo‘lgan) bayramlar; O‘rta asrlardan inqilobgacha bo‘lgan davrdagi o‘zbek bayramlari; SHo‘rolar davridagi bayramlar; Mustaqillik davridagi bayramlar. Oxirgi yillar ommaviy bayramlarning janr muammolari dolzarb bo‘lib turipti.

⁷¹ Qoraboyev U. X.O‘zbek xalqi bayramlari. T.2002.

⁷² Genkin.D.M. Massoviye prazdniki M.1975 s. 44

O'tkazilayotgan bayramlarning janrini aniqlashda ba'zi mutaxassislar qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Ba'zan ommaviy teatrlashtirilgan bayramlarning janri yoq, degan kulgili so'zlarning guvohi bo'lamiz. Lekin bunday fikrlar noto'g'ri. Teatr san'atidagi kabi, ommaviy bayramlar ham o'z janr turlariga ega. Bu muammoni rejissyor, olimlar D.M.Genkin, I.G.Sharoyev, I.M.Tumanov, A.D.Silin, N.Vershkovskiy, U.Qoraboyevlar o'z izlanishlarida isbotlab berganlar. Ularning tajribalaridan kelib chiqib, ommaviy bayramlarni quyidagi janrlarga bo'lish mumkin:

- teatrlashtirilgan konsert;
- konsert-miting;
- ommaviy sayl;
- teatrlashtirilgan namoyish;
- ko'chalarda, maydonlarda, stadion va bog'larda o'tkaziladigan bayram harakati;
- milliy san'at dekadalari;
- san'at festivallari;
- qo'shiq bayramlari;
- raqs bayramlari;
- karnavallar;
- suvda o'tkaziladigan bayramlar;
- ochiq havoda namoyish etiladigan teatr-spektakllar;
- ko'cha bayramlari;
- sport bayramlari;
- teatrlashtirilgan bolalar bayramlari.

Bayramning paydo bo'lishi, uning rivojlanish bosqichlarini "Eortologiya" fani o'rganadi. «Eortologiya» - grekcha so'zdan olingan bo'lib – bayram haqidagi fandır. Mazkur fanning yuzaga kelishida va uni ilmiy-nazariy jihatdan o'rganishda I.Snegiryov, I.Saxarov, F.Buslayev, A.Afanasev, Ye.Anichkov K.Mardjanov, D.M.Genkin, I.M.Tumanov kabi mutaxassislarning xizmatlari katta bo'lgan. Shuningdek Mahmud Qoshg'ariy, Abu Rayhon Beruniy, Firdavsiy, Farobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy, Behbudiy, Fitrat kabi Sharqning mutafakkir olimufuzalolari ham bayramlarning ijtimoiy hayotdagi o'rni va roli haqida turli nuqtai nazar bilan yondoshib o'z fikr va mulohazalarini bayon etganlar. Mazkur sohadagi muammo va kamchiliklarni ijobiy hal etish, xalqaro konfrensiyalar o'tkazish, dunyo xalqlari bayramlarining xilma-xilligini o'rganishi, bayramlarning ijtimoiy hodisa sifatida, hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini o'rganish mazkur fan mutaxassislarining asosiy vazifalaridan biridir. Ommaviy bayramlarning ommabopligi shundaki, birinchi navbatda, u amaliy namoyish etilganda, o'zining chuqur ijtimoiy - psixologik va tarbiyaviy ildizga ega ekanligi namoyon bo'lib, sahnalashtirish jarayonida tasodifiy hol va elementlarga yol qo'yilmaydi. Shuni aytib o'tish joizki, ommaviy bayramlar tarixi, ayniqsa O'zbekiston bayramlari tarixining kelib chiqish genezisi, uning turlari to'liq o'rganilmagan. Tarix shunday fanki, qanchalik chuqur o'rgansak, shunchalik kam bilishimizga ishonchimiz komil bo'ladi. Ayniqsa ommaviy bayramlar tarixi juda ham kam o'rganilgan. Bu sohada birinchilardan bo'lib falsafa fanlar doktori, professor U.X.Qoraboyev ilmiy izlanishlarida O'zbekiston bayramlari fani rivojiga o'zining katta hissasini qo'shdi. Uning «O'zbekiston bayramlari», «O'zbek xalqi bayramlari» kitoblarida bu mavzuga chuqur, ilmiy yondashilib, bayramlarning kelib chiqish tarixi to'liq yoritishga harakat qilingan. Yaqin davrlargacha bayramlar tarixi umumiy san'at tarixi sifatida (adabiyot va teatr) o'rganilib kelingan edi. Lekin, ommaviy bayram va tomoshalar har bir tarixiy davrda tarbiya va ma'rifatning asosiy o'giti sifatida yuqori o'rinlardan birini egallab kelgan. Ommaviy bayramlar tarixiga qisqacha nazar solsak, o'zining g'oyaviy jihatdan kompozitsion butun bo'lgan Qadimgi Yunoniston va Rim davridagi bayramlardan boshlasak bo'ladi. Albatta, qadimgi

Yunoniston va Rim bayramlarigacha ham insoniyat paydo bo'lganidan keyingi davrda bayramlar vujudga kelib, shakllangan. Lekin bu bayramlar o'zining ma'naviy, intellektual darajasi, ifodaviy shakllari jihatidan primitiv xususiyatga ega bo'lib, kompozitsion yaxlitlikka ega bo'lmagan. Qadimgi Yunoniston va Rim davrida tashkil qilinib, o'tkazilgan xalq bayramlarida ommaviy bayramlar dramaturgiyasi va rejissurasining elementlari vujudga kelgan. Qadimgi yunonlarda bayram o'ziga xos mustaqil bo'sh vaqt va dam olishning bir shakli bo'lib, hatto doimiy jihatdan ham uzviy, faol mashg'ulot turiga aylangan. Bizga ma'lumki, Delfe, Pifiy, Nemeysk va Panfin o'yinlari juda ham ommabop bo'lgan. Lekin bu o'yinlarning ichida eng mashhuri Olimp o'yinlari bo'lgan. Olimp o'yinlari maxsus qurilgan Olimp shahrida 4 yilda bir marotaba o'tkazilgan. Qadimgi Rim Yunoniston bilan qo'shni bo'lishiga qaramay, o'tkaziladigan bayramlar shakli va ko'rinishi jihatidan, tubdan farq qilgan. Yunoniston bayramlarida Afina fuqarolari faol qatnashishgan bo'lsa, qadimgi Rim tomoshalarida tomoshabin bilan ishtirokchi ajratilgan. Aynan shu davrdan boshlab «tomosha» so'zi «bayram» so'zining sinonimiga aylangan. Rim imperiyasi davrida qattiq sinfiy kurash yuzaga kelgani, imperiyani kuch bilan boshqarilayotganligi sababli, aholini chalg'itish maqsadida tomoshalar yuzaga keladi. Qadimgi Rim imperiyasi tomoshalarida sahna texnikasi, ta'sirchan vositalar ancha rivojlandi. Ayniqsa Rimda qurilgan mashhur Kolizey tomoshagohi hozirgacha insonlarni hayratga solib kelmoqda. Kolizey nafaqat kattaligi balki, harakatga keluvchi arenasi, sahna mexanizmlari orqali arenani ko'lga yoki o'rmonga aylantira olish kabi jihatlari bilan butun jahonga mashhur. Ayniqsa, qadimgi Rimda dushman ustidan qozonilgan g'alabaga bag'ishlangan Triumf paradlari o'ziga xos teatrlashtirilgan harbiy parad edi. Bundan tashqari, gladiatorlar janglari, sirk poygalari, artistlar musobaqalari, dengiz janglari, luperkali, «kichik triumf» - olqishlash kabi tomoshalar mashhur bo'lgan.

O'rta asrlarda ommaviy bayramlarning tabaqalashishi intensiv ravishda rivojlandi. Ayniqsa, feodal davlatning kuch-qudratini ko'klarga ko'taruvchi diniy bayramlar rivojlandi. Shu bilan bir qatorda shahar maydonlarida o'tkaziladigan hazil-

mutoyibaga qurilgan bayramlar xalqning eng sevimli bayram tomoshalari bo‘lib, ko‘plab xalq ommasini to‘plab, ularning kelajakka intilishi va ertangi kunga bo‘lgan ishonchining kurtagi sifatida namoyon bo‘lgan.

Rasmiy bayramlar, bu bayramlarning aksi o‘laroq, hukmron tabaqaning manfaatlarini himoya qilishga bag‘ishlangan edi. Ommaviy bayramlarga bunday yondashish «dam olish» degan tushunchaning o‘zgarishiga olib keldi. O‘rta asrlarda shaxsning dam olishi, o‘z xohishiga qarab erkin bo‘lmay, cherkov, din arboblari tomonidan boshqarilgan. Bu davrda diniy bayramlarning o‘zi yuzdan ortiq bo‘lgan. Katta yer maydonlariga, ulkan siyosiy kuchga ega bo‘lgan cherkov, bayramlarni ham o‘z qo‘liga kiritib, xalq oldida o‘z ustunligini namoyish etib, o‘zining tashviqot quroliga aylantirgan. Cherkovning badavlatligi bu bayramlarda kostyumlarning turlituman rang-barangligini ta’minlab, o‘ziga xos teatrlashtirishni vujudga keltirgan, bu esa cherkov marosimlarini ommaviy bayram darajasiga olib chiqishiga yordam bergan. Jumladan; O‘zbekistonda tabiat bayramlaridan keng nishonlanganlaridan biri bu - Navro‘z bayramidir. Bu bayramlar haqida X-XI asrlarda yashagan buyuk qomuschi olim Abu Rayhon Beruniy o‘zining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar“ asarida batafsil to‘xtalib, uning mohiyatini ochib, “Navro‘zning kelib chiqishi haqida turli afsonalar mavjud, lekin bu masalaga ilmiy yondashilsa, “Navro‘z“ning paydo bo‘lishi har tomonlama ilmiy asoslangan koinot va tabiat qonuniyatlari, kecha va kunduzning vaqt jihatidan barobar bo‘lishi, kunduzning uzaya boshlashi, tabiatda jonlanishning boshlanishi, bahorning kelishi sabab bo‘lgan. “Navro‘z“ning chuqur ildiziga murojaat qilsak, u eng qadimiy davrlarda ibtidoiy odamlarning dehqonchilikka o‘tganidan so‘ng dalalarda yangi ish mavsumi boshlanishidan oldin o‘tkaziladigan bahor bayramlariga borib taqaladi»⁷³. Vaqtlar o‘tib bu bayram rivojlanib, unga mos kun aniqlanib “yil boshi“ vazifasini o‘tay boshlagan. “Navro‘z“ bayramini nishonlash bir oyga cho‘zilgan. Bu haqida Beruniy quyidagicha yozadi: “Keyingi podshohlar bu oy, ya’ni farvardin mohning barchasi (kunlarini)ni hayitga aylantirib, ularni oltiga taqsim

⁷³ Beruniy. “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorlik». Tanlangan asarlar, I tom, T.,Fan 1960, 257258 b.

etadilar. Birinchi besh kun podshohlar uchun, ikkinchisi ulug‘ kishilar uchun, uchinchisi podshohlarning g‘ulomlari uchun, to‘rtinchisi xizmatkorlar uchun, beshinchisi xalq ommasi uchun, oltinchisi cho‘ponlar uchun⁷⁴.

Qadimdan, insoniyat paydo bo‘lgan zamondan boshlab, bayramlar shaxsning hayotdagi muvaffaqiyatlari, orzu-umidi, voqea, hodisalar, mehnatdagi va boshqa sohalaridagi yutuqlari, bosib o‘tgan yollarini chuqur anglash, g‘alabalardan faxrlanish, ertangi kunga umid bilan yashash, bayram arafasida bir-birini qutlash, kelajak hayot uchun yaxshi istaklar bildirish, ishlariga omad, baxt tilash, o‘zligini, millatini anglash, milliy mafkurasiga ega bo‘lishdek g‘oyalarni ilgari surgan. Bayramlar vaqt qadriga yetish, uni e‘zozlash uchun sharoit yaratadi.

Bayram insonlarning estetik kechinmalariga ta‘sir qilib, shaxsning ma‘naviy dunyosini boyitadigan vositadir. Bayram va tomoshalarning asosini milliy qadriyatlarga bo‘lgan hurmat, ehtirom egallab, insonlarga badiiylik, san‘at orqali estetik zavq bag‘ishlashdek vazifalar ustuvor turadi. Bayram tashkilotchilari, ayniqsa seneriychi, rejissyor ishlatilayotgan materiallarning dolzarbligi, hujjatlar, faktlarning aniqligi va ularning badiiy uslublari yordamida sintezlash kabi vazifalar ulardan juda ham katta javobgarlikni talab qiladi. Bunday tadbirlar insonlarning ijtimoiy-psixologik talablariga javob berib, mayda guruhlardan ommaviylikka o‘tib, shaxslarning ommaviy harakatidagi faolliklarini oshirib, bayramona dam olishdek sharoitni yaratishga turtki bo‘ladi.

Maydonlarda, bog‘larda, ko‘chalarda o‘tkazilayotgan ommaviy tadbirlar nafaqat ommaviy xatti-harakatni yuzaga keltiradi, balki karnavallar, sayillar, festivallarda estetik zavq bag‘ishlab, tomoshalarning tomoshaviylikini oshirib, bayramona kayfiyatni vujudga keltiradi. Chunonchi, bayramlarda insonlar yangi, go‘zal kiyimlar kiyishadi, lazzatli taomlar tayyorlashadi, hamma ko‘tarinki kayfiyatda bo‘ladi. Bayram kuni yomonlar-yaxshi, xasislar-sahiy, xunuklar-go‘zal bo‘ladi. Bayramlarning afzalliklari haqida qancha gapirsak oz, u keng xalq

⁷⁴ O‘sha kitob, o‘sha bet.

ommasini o‘ziga jalb qilib, madaniy, ma’naviy ozuqa berib, hayotimizning barcha jabhalarini keng namoyish qiladi.

Professor E.V. Sokolov bayramlarning ahamiyati haqida quyidagilarni yozadi: «Bayramning ijtimoiy-siyosiy va madaniy ahamiyati shu bilan belgilanadiki, u muhim an’analarni qo‘llab, insoniyat madaniyatining yutuqlarini mustahkamlaydi»⁷⁵. Darhaqiqat, bayramlar millatning, jamiyatning moddiy va madaniy sohalaridagi eng yaxshi tomonlarini ko‘rsatib beradi. O‘zbekiston bayramlarida an’anaviy xalq pedagogikasi katta ahamiyatga ega bo‘lib, hozirgi kungacha bu an’analar bizga yetib kelgan. Ayniqsa, insonlardagi bir-birini e‘zozlash, kattalarni hurmat qilish, ezgulikka intilish, go‘zallikni asrash, milliy qadriyatlarni qadrlash, ilm-fanga intilish, vatanni sevisish kabi chuqur falsafiy g‘oyalar ilgari surilib, tarbiyaning poydevori bo‘lib xizmat qilgan. Zamonaviy bayramlarimizda ham ana shu xalq pedagogikasining asosiy o‘g‘itlari saqlanib qolgan. Ommaviy bayramlarni tashkil etishga bo‘lgan ehtiyojning pedagogik aspekti shundaki, bu ehtiyoj, qiziqishni seneriy rejissyorlik va tashkilotchilik faoliyatini amaliy qurollar yordamida qondirishga erishishdir. Bayramlarni nazariy hamda amaliy tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, bayram oddiy madaniy ma’rifiy tadbir bo‘libgina qolmay, balki yuqori ijtimoiy, insoniyatning chuqur ildizli hayot faoliyatining kompleks shaklidir. Bu shaklni tadbiq etish borasida D.M. Genkin, A.A. Kanovich, Ye.V.Rudenskiy, L.S. Lapteva, A.F. Mazayev, U.X. Qoraboyev, B.S.Sayfullayev, F.YE.Ahmedov kabi olimlar izlanishlar olib bordilar. D.M. Genkin bayram va bayramona kayfiyatni tahlil qilib, quyidagi asosiy komponentlar va birlamchi ijtimoiy ehtiyojlarni ajratib ko‘rsatadi:

Birikishga bo‘lgan ehtiyoj, voqealarga bo‘lgan shaxsiy chidamlilikni toblab, unga bo‘lgan munosabatini izhor etishda bir maqsad sari intilish;

Keng ijtimoiy muloqotga intilish ehtiyoji;

⁷⁵ Соколов Э.В. Свободное время и культура досуга. Л., 1977, с.84-88.

Jamoa emotsional hayotidagi, jamoa xursandchiligi, tantanasi, intilishlarini namoyon etishga intilish ehtiyoji.

Bu g'oyalarning amalga oshishida haqiqiy, kompozitsion jihatdan mukammal, ma'naviy jihatdan boy, bayram tomoshalarini yaratish ommaviy bayramlar rejissyorlaridan jamiyatimiz oldida katta mas'uliyatni talab qiladi. Ommaviy bayramlar teatri bu, avvalam bor, qahramonona teatrdir. U o'z g'oyasi bo'yicha masshtabli va monumentaldir.

Ommaviy bayram va tomoshalar haqida fikr yuritishdan oldin biz, bayram bilan tomosha o'rtasidagi farqni anglab olishimiz lozim. «Bayram» tushunchasi, «tomosha» tushunchasidan ancha kengdir. Bayram har doim

keng, faol, ijodiy xalq ommasining ishtirok etishi bilan farq qiladi. U katta maydonlarni egallab, hech qanday uzviy sahna maydoni va chegarasiga ega bo'lmaydi. Tomosha bo'lsa, bayramdan farqli, doimo aniq sahna maydonida o'tkazilib, uzviy sahnaviy chegaraga ega bo'lib, xalq ommasini ishtirokchi va tomoshabinga bo'ladi.

Nomoddiy madaniy merosimizning eng yashovchan, qadimiy, ardoqli va doimo har bir avlod badiy tafakkurining sarchashmasidan quvvat olib yangilanib boradigan an'analardan biri xalq sayillari hisoblanadi. Ajdodlarimizning tabiat va koinot haqidagi eng qadimiy tasavvurlari, e'tiqodiy qarashlari, dehvonchilik va chorvachilik xo'jaligi bilan bog'liq turli xil urf-odatlar, an'anaviy xalq taqvim amallari, serhosillik g'oyasini o'zida ifodalovchi agrar marosimlar zahirida yuzaga kelgan navro'z bayrami – yilboshi sayli, tabiyatning barhayotligi to'g'risidagi mifalogik ishonchlar asosida shakillangan “gul sayillari”. “boychechak sayli”, “sumalak sayli”, shuningdek, hosil bayramlari va sayillari asrlar davomida an'anaviy tarzda o'tqazib kelingan. Xalqimiz bunday sayillarni hamisha ko'z qorachig'iday asrab-avaylab, takomillashtirib, badiy jihatdan sayqalantirib, bugungi kunga qadar tarqiy ettirib keldi. Milliy qadriyatlarimiz tiklanib, nomoddiy madaniy merosni asrab-avaylash va keng ko'lamda targ'ib yetish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayotgan bugungi kunda qadimiy

sayillar zamiridagi ezgu g'oyalar asosida yosh avlodni tarbiyalash dolzarb vazifalarimizdan biridir. Milliy mustaqillik xalqimizning o'z bobolari zakovati tufayli yaratilgan ulkan madaniy merosga bo'lgan munosabatini tubdan yangilab, ajdodlarimiz tarixi, madaniyati, ma'naviy qadriyatlari tizimini keng ko'lamda targ'ib etishning misli ko'rilmagan imkoniyatlarini ochib berdi. Istiqlol sharofati bilan dunyoqarashimizda, ongimizda ro'y bergan yangilanish, ruxiy poklanish va ma'naviy tiklanish jarayoni madaniyat va istirohat bog'lari taraqqiyotida ham yaqqol aks etmoqda. Ajdodlarimizning ko'p asrlik badiiy tafakkur durdonalarini bebaxo milliy qadriyatlar tizimi sifatida saqlab qolish, targ'ib va tadqiq etish, uning eng nodir namunalarini keng ommalashtirishda madaniyat va istirohat bog'larining ham roli beqiyosdir. Chunki mamlakatimizdagi madaniyat va istirohat bog'larida xalqimizning qadimiy sayillarini o'tqazish hamda an'anaviy bayramlarni tashkil qilish orqali xalqimizning ko'ngilli hordiq chiqarishini taminlash uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Madaniyat va istirohat bog'larida an'anaviy sayillarni o'tqazishni yanada takomillashtirish, ayniqsa, asirlar davomida sayqallanib kelgan eng xalqona milliy an'analarimizni tiklashga bor kuch va mahoratimizni solmog'imiz lozim.

X U L O S A

Madaniyat va istirohat bog‘lari—aholi madaniy hordiq chiqaradigan, turli bezakli daraxt va gulzorlar bilan jihozlangan, ko‘kalamzorlashtirilgan maskan. Madaniyat va istirohat bog‘ tuzish san’atining o‘ziga xos uslublari asosida barpo etiladi. O‘zbekistonda Madaniyat va istirohat bog‘lari shahar hududining hajmi, me’moriy qiyofasi va tabiiy sharoitiga qarab tashkil qilinadi. Kichik shaharlarda bitta, katta shaharlarda bir necha, aholisi 500 mingdan ortiq shaharlarda esa umumshahar ahamiyatiga ega bo‘lgan bog‘lardan tashqari, shahar hududidagi har bir tumanning madaniyat va istirohat bog‘i bo‘lishi mumkin. Unda aholiga madaniy xizmat ko‘rsatish katta o‘rin tutadi. Maydonlardagi ochiq estrada sahnalarida professional teatr va eng yaxshi havaskorlik jamoalarining spektakl va konsertlari, dorboz, polvon va masxarabozlarning tomoshalari, askiya kechalari uyushtiriladi, kinofilmlar namoyish qilinadi. Ommaviy sayil, karnaval, turli sport musobaqalari va boshqalar tashkil etiladi. Bolalar uchun maxsus joy ajratilib, qiziqarli attraksionlar bilan jihozlanadi.

Madaniyat va istirohat bog‘lari Vatanimizda an’anaviy tabiiy-madaniy maskan sifatida azaldan mashhur bo‘lib kelgan. Hozir ham bu go‘zal maskanlar ko‘pchilikning sevimli madaniy dam oladigan joylari hisoblanadi.

Endilikda xalqimizning madaniy bog‘dorchilik an‘analari qayta tiklanmoqda. Madaniyat va istiroxat bog‘larida ajdodlarimiz tajribalari asosida gulzor, xiyobon, chorbog‘ yaratish an‘analaridan foydalanilmoqda. Respublikamizda nafaqat tarixda mashhur bo‘lgan bog‘lar, masalan, Samarqanddagi Amir Temur bog‘lari tiklanmoqda, shuningdek, Toshkentdagi Alisher Navoiy nomidagi milliy bog‘ kabi mashhur yangi bog‘lar barpo etilmokda. An’anaviylik va zamonaviylikni uyg‘unlashtirgan yangi bog‘lar Namangan, Farg‘ona, Xorazm va boshqa viloyatlarda ham vujudga kelmoqda.

Tavsiyalar bugungi kunda bizga dolzarb bo‘lib qolayotgan yoshlar tarbiyasi ularning bo‘sh vaxtini unumli va samarali o‘tkzish masalasi jiddiy

masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Yosh avlodni barkamol, komil inson bo'lib ulg'ayishida Madaniyat va istirohat bog'larining o'rni beqiyosdir. Ularni chetdan kirib kelayotgan har hil illatlar ommaviy madaniyat nomi ostidagi qora kuchlardan himoya qilish, ongida qora kuchlar uchun ma'naviy bo'shlik qoldirmaslik, birdan bir vazifamiz hisoblanadi. Buning uchun albatta insonlar qiziqishlarini hisobga olish, ular o'tasida mexr, muhabbat, do'stlik kabi yaxshi fazilatlarini namoyon etishlariga zamin xozirlash lozim. . Bugungi kunda faoliyat yuritayotgan madaniyat va aholi dam olish markazlarimiz xar tarafdin qaralganda qulay, ko'rkam va tinch. Bu maskanlarda aholining barcha qatlamlariga birdek xizmat qilmoqda bu yerda nafaqat yoshlar balki yoshi kattalar, oilalar ham tashrif buyurishlari mumkin. Yaratilayotgan shart sharoitlar nafaqat o'zbekistonimiz chet el mamlakatlari talabiga ham mos keladi. Aytib o'tish joizki bunday Madaniyat va istirohat bo'g'lari yurtimizda poytaxtimiz va viloyatlarimizning shaharlarida ta'lab darajasida ish yuritmoqda qolgan chekka chekka tumanlarida va hatto bazi bir shaharlardaxam Madaniyat va istirohat bog'lari juda achinarli holatga kelib ulgurgan bu esa o'sha yerda yashab kelayotgan tub aholining Madaniyat va istirohat bog'larida madaniy hordiq olish imkoniyatidan butkul uzilganligini anglatadi. O'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi mafkurasiga o'z ta'sirini o'tkizmay qolmaydi. Shu boisdan har bir viloyat, tuman va aholi soni ko'p bo'lgan qishloqlarda Madaniyat va istirohat bog'lari barpo etilib ta'lab darajasiga keltirilishi u yerda yashovchi tub aholi doimiy ravishda madaniy hordiq olishga bo'lgan ehtiyojni qondira olishi, poytaxt hamda shaxarlar bilan uzviy hamkorlikni yo'lga qo'yilishi eng asosiysi bu faqat qog'ozda bo'lmasligi zarur. O'tkaziladigan ommaviy-madaniy bayram tadbirlarda taniqli sa'nat va madaniyat soha vakillari muntazam qatnashib har bir insonni avvalo yashash, yashagandaham o'z vatanini sevib shunday tinch va go'zal vatan farzandi ekanidan mamnunlik tuyishiga erishish lozim. Bunday tuyg'uni tuymas ekan ularning nazarida o'zganing non yeganini ko'rib to'ydim yoki men non yemayman, yemaganman hatto non nima deyish bilan barobar bo'lib qoladi

ahir Madaniyat ruhimiz, qalbimiz noni emasmi? Bajarilmayotgan ishlar yaxshi deb ma'lumot berish esa ko'rinib turuvchi yolg'ondir. Bizning asosiy vazifamiz yurtimizning har bir fuqorosi qalbida milliyligimiz o'z vatanimiz jonajon O'zbekistonimizni sevib ardoqlashni insonlar ongiga muxrlashdan iborat bo'lmog`i lozim. Respublikamizdagi bog'lar Madaniyat vazirligi tizimida faoliyat ko'rsatmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Меъёорий- ҳуқуқий ҳужжатлар

1. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 18.10.2017-yil, 07/17/3337/0135son
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-2778-sonli Qarori, 15 fevral 2017.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3022-sonli Qarori, 31 may 2017
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 29 dekabrda "2011-2015 yillarda madaniyat va istirohat bog'larining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 322sonli Qarori 4.2. Istiqlol va milliy teatr. Farmonlar, qarorlar, nutqlar to'plami. -T., 2002.
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. 2017 yil.
6. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" T.; 2008

Karimov I.A."Milliy teatrimiz - iftixorimiz". Toshkent shahrida Akademik Drama teatri yangi binosining ochilish marosimida so'zlagan nutqi. 2001 yil 30 avgust.
7. Harakatlar strategiyasi va ma'naviy yuksalish. Azamat Haydarov.G'afur Gulom nashriyot.Toshkent-2018. 99-bet
8. Маданият марказлари Низоми. 2019 йил. Апрель

Asosiy adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar. - T., 1966.
2. Axmedov B. Amir Temur.- T., 1995.
3. Bekmatov A., Rustamova R. Milliy g'oya targ'iboti va madaniy-ma'rifiy tadbirlar -T Ma'naviyat2008- 12 b.
4. Beruniy. "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorlik». Tanlangan asarlar, I tom, T.,Fan 1960, 257258 b.
5. Bobur Z. M. Boburnoma. - T., 44 bet.
6. Dushamov J. Ommaviy tadbirlar rejissurasi. –T.: G'.G'ulom, 2002.
7. Mahmud Qoshg'ariy. "Devonu lug'otit-turk", 1 tom. – T.: "Fan", 1963 yil, 447 bet.
8. Narshaxiy. Buxoro tarixi.-T.,1992.
9. Umar Xayyom. Navro'znoma. T., Mehnat, 1990, 12 bet.
10. Kur'oni Karim .- T., 2001
- 11.Muxammadjonov A. Amir Temur. (risola).T.: «ABV MATBUOT-KONSALT», 2011.
- 12.Jabbarov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. –T.: O'qituvchi, 1994.
- 13.Narshaxiy. Buxoro tarixi.-T.,1992.
- 14.Qodirov M.H. O'zbek xalq tomosha san'ati. –T,: O'qituvchi, 1981.
- 15.Qoraboyev U.H. Badiiy-ommaviy tadbirlar. -T.: O'qituvchi, 1986.
- 16.Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma -T.,1997..

Qo'shimcha Adabiyotlar

1. Genkin D. M. Massoviye prazdniki. –M., 1975.
2. Соколов Э.В. Свободное время и культура досуга. Л., 1977, с.84-88.
3. Костецкий В., Исхакова М. История народов Узбекистана.- Т.: «O‘qituvchi», 1994, 18 bet.
4. Джаббаров И., Дресвянская Г. Духи, святые, боги Средней Азии.-Т.: «Узбекистан», 1992.- 55 bet .
5. Булатов М.С. Геометрическая гармонизация в архитектуре Средней Азии IX - XV вв.- М.; 1978, 42 bet .
6. Залеская А.С. Озеленение городов Средней Азии. М.,1949, 35 bet.
7. Карабаев У.Х. Этнокультура.- Т.: Шарк, 2005, 210 bet.
8. Де Клавихо Рюи Гонзалес. «Дневник путешествия ко двору Тимура в Самарканде в 1403-1406». СПб., 1881, 32 bet.
9. Пугаченкова Г.А. Садово-парковое искусство в Средней Азии в эпоху Тимура и Тимуридов.-Т.; 1951, 69 bet.
10. Вамбери Арминий. «Путешествие по Средней Азии». 1863.- 28 bet.
11. Алимов У.А. Древние сады Самарканда.- Т., 1963, 23 bet.
12. Vaxtin M.M. Literaturno-kriticheskiye stati. М., 1986, s.299.

Internet saytlari:

1. www.bilim.uz.
2. www.philosophy.ru.
3. www.history.ru.
4. www.gov.uz - Hukumat sayti.
5. www.press-service.uz - Prezident sayti.
6. www.ziyo.edu.uz - Vazirlik sayti.
7. www.senat.uz/ni/laws/m-278_04.01.2011.html
8. <http://ziyonet>
9. <http://www.patent.uz>.
10. <http://www.teatr.uz>.
11. www.mcs.uz
12. www.uzedu.uz